

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

AXMETJANOVA MUQADDAS VAXABOVNA

**TEATR SAN‘ATINING EKZISTENSIAL MOHIYATI VA MILLIY ONG
SHAKLLANISHIGA TA‘SIRI**

09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi (Estetika)

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand - 2023

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
по философским наукам**

**Content of the dissertation abstract of Doctor of Science (DSc)
in Philosophical Sciences**

Axmetjanova Muqaddas Vaxabovna

Teatr san’atining ekzistensial mohiyati va milliy ong shakllanishiga ta’siri..... 3

Ахметжанова Мукаддас Вахабовна

Экзистенциальная суть театрального искусства и влияние его на
формирование национального сознания..... 29

Akhmetzhanova Mukaddas Vakhobovna

The existential essence of theatrical art and its influence on formation of national
Consciousness 59

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published work..... 64

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

AXMETJANOVA MUQADDAS VAXABOVNA

**TEATR SAN‘ATINING EKZISTENSIAL MOHIYATI VA MILLIY ONG
SHAKLLANISHIGA TA‘SIRI**

09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi (Estetika)

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand - 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2017.3/DSc/Fal26 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www/ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Agzamxodjayeva Saida Sabitxanovna**
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Samadov Aktamkul Rafikovich**
falsafa fanlari doktor i (DSc), dotsent

Abilov O'rol Murodovich
falsafa fanlari doktori, professor

Muxtarov Ildar Askadovich
san'atshunoslik fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «___» _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (99866) 239-13-87, 239-11-40; faks: (99866) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz Samarqand davlat universiteti, Bosh bino, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ ___-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (866) 239-13-87, 239-11-40; faks: (8366) 239-11-40.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.Sh.Negmatova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon sivilizatsiyasida badiiy-estetik ijod, adabiyot, musiqa, madaniy tomoshalar, relaksatsion ommaviy tadbirlar, maroqli dam olish va hordiq chiqarish, san'at saroylari va studiyalar, kinematografiya va teatr san'ati muhim o'rin tutmoqda. Hech bir xalq, millat va elat ularning ta'sirisiz yashamagan va sivilizatsiyalarning qaror topishi esa mudom ushbu qadriyatlar ta'siriga, shakllanishiga hamda intensiv yoki ekstensiv rivojlanishiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Bu holat esa dunyoda ro'y berayotgan global o'zgarishlar inson omiliga, unda milliy va ijtimoiy ongini, ijodiy kreativ fazilatlarni shakllantirishga alohida talab qo'yimoqda. Ayniqsa hozirgi globallashuv davri insoniyatni, ekzistensial borliqni asrash, sotsium hayotini gumanizatsiyalashtirish, shaxsdan yon-atrofga, jamiyat va davlat ishlariga ongli, kreativ munosabatda bo'lishni, globallashuvdagi ziddiyatlarni obyektiv va ratsional baholash ko'nikmalarini taqozo qilmoqda. Bu, o'z navbatida, sivilizatsiya taraqqiyotini ta'minlashni umumijtimoiy, umuminsoniy vazifaga aylantirmoqdaki, teatr san'ati orqali har bir fuqaro, ayniqsa yosh avlodning badiiy-estetik ongini rivojlantirishning yangi mexanizmlarini izlab topish va sahnaga tatbiq etishning badiiy-estetik vositalarini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Jahon ilm-fanida teatr san'atining ekzistensial-falsafiy mohiyatini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan amaliy va fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, yoshlarda milliy ongning shakllanishi, ma'naviyati hamda tomosha madaniyati uyg'unligini ta'minlash, ijtimoiy-siyosiy muammolarning globallashuvi, insonlarning ma'naviy olamini boyitish va bu yo'lda teatr san'atida yuz berayotgan innovatsion yondoshuvlarning jamiyat farovonligiga ta'siri, retsipient (tomoshabin)larning ongi va tomosha madaniyati shakllanishining nazariy, uslubiy, konseptual masalalari, ularga ta'sir etuvchi muhim tajribalar va izlanishlarga doir ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, bugungi tub o'zgarishlar insonlarning, retsipientlarning saviyasini oshirish, teatr san'atida yuzaga kelayotgan yangi uslub va yondoshuvlarni anglay olish va to'g'ri baholay bilish, ratsional xulosalar chiqara olish ko'nikmalarini shakllantirish usullarini falsafiy-estetik tadqiq qilish, teatr san'atidagi modern va eksperimental tajribalarning ekzistensial-falsafiy mohiyatini tadqiq etish ilmiy zaruriyat bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda davlat teatrlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, repertuarlarini boyitish, madaniyat va san'at sohasi uchun kadrlar tayyorlash, yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash, teatr xodimlarining ijodiy izlanishlarini munosib rag'batlantirish, ularni zamonamiz qahramonlari obrazini yaratishga undash borasida zarur chora-tadbirlar ko'rilmogda. «Jahondagi eng ommaviy va ta'sirchan san'at turlaridan biri bo'lgan teatr asrlar davomida odamlarni insoniylik va ezgulikka chorlab, ularning qalbida olijanob fazilatlar, go'zal his-tuyg'ularni kamol toptirishga, jamiyat hayotida tinchlik, do'stlik va hamjihatlik, yuksak axloq va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilib

kelmoqda»¹. Shu sababli ham Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini qurishda teatr san’ati imkoniyatlaridan keng foydalanish, uning badiiy-estetik ta’siri orqali insonlarning milliy ongini rivojlantirishning innovatsion yechimlarini topish, sahna qonuniyatlari, tamoyillari va mezonlarini tadqiq etish falsafiy-estetik tadqiqotlarning dolzarb mavzularidan biriga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son «Madaniyat va san‘at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonlari, shuningdek, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son «O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida», 2021-yil 26-martdagi PQ-5039-son «Ma’naviyat va ijodni qo‘llab quvvatlash maqsadli jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi O‘RQ-668-son «Madaniyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi 266-son «Diydor» yoshlar eksperimental teatr-studiyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida», 2019-yil 18-apreldagi 329-son «Davlat teatrlari va konsert-tomosha muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020-yil 23-maydagi 325-son «O‘zbekiston Respublikasida muzey va teatrlarning marketing faoliyati samaradorligini oshirish to‘g‘risida»gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» dasturi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Teatr san’atining ekzistensial-falsafiy mohiyatini tadqiq etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar, teatr san’atini falsafiy-estetik va ilmiy-retrospektiv o‘rganish yuzasidan tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Internation Federation for Theatre Research (AQSh), Kultur und Theater (Germaniya), Edinburg University (Shotlandiya), Circulo De Bellas Artes «Minerva» (Ispaniya), Dans Sociologie de l’Art (Fransiya), Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Xalqaro teatr kuni munosabati bilan mamlakatimiz teatr san’ati xodimlariga tabrigidan.. "Xalq so‘zi", № 61 26.03.2021.

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://www.theaterderwelt.de/en/>; <https://www.youtube.com/> ; <https://www.tass.ru/>; <https://www.rbc.ru/>; <https://www.kommersant.ru/>; <https://www.iz.ru/>; <https://www.kubnews.ru/>; www.dissercat.com/; www.iftr.org/; <https://kaho-berlin.de/ru/>; <https://www.ed.ac.uk/>; <https://ru.wikipedia.org/>; <https://www.finland.fi/ru/>; <https://www.scielo.br/>; <https://www.gitis.net/> ; <https://dic.academic.ru/>; <https://www.centraleurasia.org/>; <https://ifeac.hypotheses.org/>; <http://antique-lit.niv.ru/>; <https://rsaa.org.uk/>; <https://www.asiac.net/> va boshqa manbalar asosida tayyorlandi.

instituti va Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti (O'zbekiston) yetakchi olimlari va faylasuflari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Dunyoda teatr san'atining falsafiy-estetik jihatlari mohiyati, uning inson tafakkuri va ongi rivojidadagi o'rni masalalarini tadqiq etish bo'yicha jahonda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: badiiy-estetik ijod, potensial tomoshabin, davr talablariga muvofiq maxsus kadrlar tayyorlash, faol retsipientlarni shakllantirish va estetik-artologik muammolar tahlil etilib, zamonaviy teatr dasturlarining yangi modeli ishlab chiqilgan (Internation Federation for Theatre Research, AQSh); teatr san'atining istiqbollari tadqiqi doirasida teatr va ta'lim munosabati, teatrning vositachilik san'ati sifatidagi funksional xususiyati, teatr ta'limining xilma-xil shakllari va usullari, yoshlar tarbiyasidagi effektiv imkoniyatlari ochib berilgan (Kultur und Theater, Germaniya); teatrshunoslik va san'at menejmenti, musiqiy teatr va psixologiya, drama va adabiyot, teatr-siyosat-jamiyat munosabatlariga oid tadqiqotlar amalga oshirilgan (Edinburg University, Shotlandiya); teatrni go'zallik va nafislik san'ati sifatidagi ahamiyati, zamonaviy san'at va vizual savodxonlik borasida izlanishlar olib borilgan (Circulo De Bellas Artes, Ispaniya); san'at sotsiologiyasi, teatr va san'atni ijtimoiy hayotda estetik o'lchovga ega bo'lgan faoliyat turi sifatidagi falsafiy mohiyati asoslangan (Dans Sociologie de l'Art, Fransiya); o'zbek teatrining genezisi, ommaviy tomoshalar va xalq bayramlari bilan uzviy kelishi, san'at va estetik ideal munosabati, spektakllar dramaturgiyasi, qonuniyatlari, muammolari tadqiq etilgan (O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Samarqand davlat universiteti, O'zbekiston).

Dunyoda teatr san'atining badiiy-estetik imkoniyatlarini o'rganish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: teatrlarni o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlashi, kommersiya asosidagi faoliyati borasida; teatrlarning siyosiy, iqtisodiy, badiiy va maishiy yo'nalishlarda o'z imkoniyatlarini erkin namoyon etishi; nodavlat teatrlarning badiiy-estetik tahlili; teatr, qo'shiq, raqs va xoreografiya san'atiga oid fundamental tadqiqotlar; siyosiy teatr, vahimalar teatri, oilaviy teatr, virtual teatr hamda teatr tarixi tahlillari borasida; xalqaro teatr tadqiqotlari, teatr dizayni va texnologiyalari, teatr va realizm, teatr va milliylik, teatr va ijtimoiy taraqqiyot masalalariga oid; teatr san'atining tarixiy va ijtimoiy hayotda tutgan o'rni; teatr san'atining falsafiy-estetik jihatlari, mohiyati, uning inson tafakkuri va ongi rivojidadagi konstruktiv ta'siriga oid tadqiqotlar.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Teatr san'atini falsafiy-estetik va ilmiy-retrospektiv o'rganish antik davrdan boshlab tadqiqotchilar e'tiborini tortib kelgan. Shu ma'noda, ushbu tadqiqot ishi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

Birinchi guruh. Ushbu guruhga bevosita teatr san'atining falsafiy-estetik jihatlari, mohiyati, uning inson tafakkuri va ongi rivojidadagi o'rni masalalariga oid tadqiqotlar olib borgan xorijlik olimlarni kiritish mumkin. Teatr san'atining imkoniyatlarini yoritishda xorijlik olimlardan Platon, Aristotel, M.Avreliy, Sofokl, Yevripid, Epiktet va Senekalarning asarlarida badiiy-estetik ijod, xususan teatr,

qo‘shiq, raqs va xor san‘atiga oid turli fikrlar bildiriladi³. Aristotelning «Poetika» asari falsafiy-estetik tadqiqotlar uchun hamon asos bo‘lib xizmat qiladi. Misr, Bobil, Hind, Xitoy madaniyati va san‘ati yangi davrdan boshlab G‘arb tadqiqotchilarining diqqat markazida. Teatr san‘atining tarixiy va ijtimoiy hayotda tutgan o‘rnining ayrim masalalarini D.Geruld, J.Feral, L.Garbanati, K.Bayker, M.Billington, M.Forte, X.Kastilo, G.Jiniannachi, N.Myuller Sholl, X.Lemann, K.Shmidt, D.Meyer Dinkgraf, A.Shmitt, A.Brandas, K.A.Peynado, O.Ponte di Pino, A.Saddik, J.Middlton, L.Gardner, P.Kyummel, D.Fierro, T.Bell, Enni Le Gall, B.Reynolds, M.Xaridi, Ch.Perrot-Sheffer, Xose Luis G.Barrientos, Y.Lyuks, F.Nogrett kabi ko‘plab tadqiqotchilar o‘rganishgan⁴. Shuni alohida qayd qilish zarurki, G‘arb davlatlarida teatrlar o‘zini o‘zi mablag‘ bilan ta‘minlash, kommersiya asosida faoliyat yuritadi. Ularda davlat byudjeti orqali qo‘llab-quvvatlanadigan davlat teatrlari deyarli yo‘q. Yirik teatrlar, masalan, Britaniya qirolligi teatri, AQShda Kongress teatri va madaniyat markazi kabi muassasalar barmoq bilan sanarlidir. Shuning uchun G‘arb teatrlari siyosiy, iqtisodiy, badiiy va maishiy yo‘nalishlarda o‘z imkoniyatlari va qiziqishlari doirasida faoliyat yuritadi. G‘arb tadqiqotchilari ham ilmiy izlanishlarini ana shu nodavlat teatrlarini badiiy-estetik tahlil qilishadi. Davlatning teatrlar ishiga aralashmasligi ular faoliyatini mutlaq erkin qilgan.

Ikkinchi guruh. MDHda teatr san‘ati K.Stanislavskiy, Y.Vaxtangov, V.Nemirovich-Danchenko, A.Saricheva, A.Petrova, M.Knebel, B.Muravyev, S.Aristarxanova, S.Gerasimov, A.Efros, O.Yefremov, G.Tovstonogov, M.Ulyanov, M.Romm, L.Parfyonov, A.Abdulov, I.Sadchikov, Y.Vasilyev kabilar tomonidan tadqiq etilgan. Ularning asarlarida teatr va realizm, teatr va milliylik, teatr va ijtimoiy taraqqiyot masalalari muhokama etiladi⁵. Xususan, 19 asrning oxiri - 20

³ Платон. Сочинения в 3-х томах. Т. 3. Част И. – М: Мысль, 1971; Платон. Сочинения в 3-х томах. Т.2. – М.: Мысль. 1971; Aflotun. Qonunlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002; Arastu. Axloqi Kabir. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015; Аврелий, Марк. Наедине с собой (с комментариями и иллюстрациями). – М.: Ast, 2021; Alimuhamedov A. Antik adabiyot tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1975.

⁴ Theatre, Theory, Theatre The Major Critical Texts from Aristotele and Zeami to Soyinka and Havel Daniel Gerould (Deniel Geruld), Applause Theatre and Cinema Books, angliyskiy yozik, 2000. // books. Google. ru. books/ about // Theatre Theory...; New Theatre Quarterly 67. Vol.17; 21 st Centure Theatres – A flexible approach/ Julian Middleton Djulian Middlton), 2007; [https // www. Artsprofessional. co.uk/node/ 179590](https://www.Artsprofessional.co.uk/node/179590); Haridy M. A. Theatre in the 21 st Centry. ([http. maharidy. come. /files/adoc7b833f2fe8b23d4e83d4...](http://maharidy.com/files/adoc7b833f2fe8b23d4e83d4...); Billington M. Whatever you want. 2001; Fortier M. Thtory /Theatre An Introduction. 2002; [https//books](https://books); Annette J. Saddik. Contemporary American Drama. Edinburgh University Press, 2007; Gardner Lyn. Modern Theatre relies too much on technology. N.Y. 2008; Streler J. Brext bilan so‘nggi uchrashuv. (Rus tilidan B.Qurbon tarjimasi). Jahon adabiyoti. –Toshkent, 2015. -№9. –B.32-35; Bruk, Piter. Rejissyor – “Marsda” ham rejissyor. (Rus tilidan Sh.Abdurasulov tarjimasi). //Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2016. -№ 10 (233); Kamyu A. Isyon va san‘at («Isonkor odam» kitobidan). //Jahon adabiyoti.-Toshkent, 1997. -№12; Mahmud J. Shoir teatr haqida. //Jahon adabiyoti.-Toshkent, 2016.-№ 6.; Ekkerman Y.P. Gyote bilan gurunlar. //Jahon adabiyoti. –Toshkent, 2012.- № 12 (187).

⁵ Stanislavskiy K.S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi (1-qism. Ijodiy kechinma jarayonida o‘z ustida ishlashi. O‘quvchining kundalik daftari). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017; Немирович-Данченко В.И. Рождение театра. – М.: Правда, 1989; Евгений Вахтангов: Сборник/ Сост., Комм.Л.Д. Вендровская, Г.П. Каптерева. – М.: ВТО, 1984; Chexov M. Aktyor texnikasi. (J.Mahmudov tarjimasi). //Jahon adabiyoti. -Toshkent, 2015. -№9.; Shklovskiy V. San‘at «usul» sifatida. (Rus tilidan H.Boltaboev tarjimasi). //Jahon adabiyoti. –Toshkent, 2018.- № 6 (253); Саричева Е.Ф. Техника сценической речи. – М-Л.: Искусство, 1948; Петрова А.Н. Искусство речи для радио и тележурналистов. – М.: Аспект-пресс, 2019; Кнебель М.О. Слово в творчестве актёра. – М.: РАТИ-ГИТИС, 2009; Кнебель М.О. О действенном анализе пьесы и роли. – М: ГИТИС, 2014; Парфёнов Л. А. Сергей Герасимов. – М.: Искусство, 1975; Эфрос А. Профессия - режиссёр (сборник). – М.: Вагриус, 2000; Ефремов О. Настоящий строитель театра. – М.: Зебра Е, 2011; Ульянов М. Работаю актёром. – М.: АСТ, 2008; Ромм М. Избранные произведения в 3-х томах. – М.: Искусство, 1980-1982; Абдулов А. Хочу остаться легендой. – М.

asrning boshlaridan K.Stanislavkiy rejissyorlik faoliyati bilan bir vaqtning o'zida aktyorning san'atkor bo'lib shakllanishi bosqichlari, sahna san'atida kechinma san'ati va realistik uslub uyg'unligi masalalari borasidagi tadqiqotlarini boshlab bergan bo'lsa; V.Nemirovich-Danchenko yangi zamonaviy teatrning tug'ilishi jarayonlaridagi yutuqli va muammoli bosqichlari; M.Knebel, A.Saricheva dramaturgiya va pyesaning xatti-harakat tahlili masalalari; Y.Vaxtangov, A.Petrova, M.Ulyanov, L.Parfyonov, A.Abdulovlar aktyorlik san'ati; B.Muravyov, S.Aristarxanova, G.Tovstonogov, A.Efros M.Romm, O.Yefremovlar rejissura; I.Sadchikov, Y.Vasilyev, V.Dmitriyevskiyalar teatr va tomoshabin munosabatlari; A.Losev, V.Tolstix, Y.Borev kabi nazariyotchilar esa teatr san'atining tomoshabinga estetik ta'siri muammolarini ilmiy tadqiq etish bilan jiddiy shug'ullandilar.

Uchinchi guruh. Mamlakatimiz tadqiqotchilari va olimlari tomonidan ilk o'zbek teatrshunosligiga tamal toshini mutafakkir olim Ahmad Donish qo'ygan bo'lsa, sal keyin shoir Zokirjon Furqat o'zining she'riy taqrizlari bilan omma e'tiborini tortdi. XIX asrning 90-yillaridan boshlab aka-uka Mirmulla va Shermulla Shermuhammedovlar teatrshunoslik ilmini boshlab berdilar. XX asrda teatr masalalari bilan jadid ma'rifatparvarlaridan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Hoji Mu'in Shukrullo, G'ozi Yunus, Ziyo Said, Abdulla Badriy, Qayum Ramazon, Bosit Siddiq, Miyon Buzruk Solihovlar shug'ullanib, teatr san'ati muammolarini o'rganish asnosida san'atshunoslik sohasi rivojiga katta hissa qo'shdilar⁶. XX asrning 40-yillaridan sahna san'ati masalalarini o'rganish ishlari avj ola boshladi. O'zbek teatr san'ati tadqiqotchilarini yana uch toifaga tasniflash o'rinli bo'ladi. Birinchisi - san'atshunos olimlar, jumladan, akademiklar G.Pugachenkova, V.Rtveladze, M.Rahmonov, A.Hakimov; professorlar L.Avdeyeva, T.Tursunov, M.Qodirov, T.G'ofurbekov, T.Bayandiyev, M.To'laxodjayeve, I.Muxtarov, S.Tursunboyev, H.Ikramov, T.Islomov, S.Qodirova, D.Rahmatullayeva, D.Qodirova; tadqiqotchilar G.Xoliqulova, N.Sayfullayev, M.Ahmadjonovalarni kiritish maqsadga muvofiq. Ularda o'zbek teatrining genezisi, ommaviy tomoshalar va xalq bayramlari bilan

АСТ, 2008. – 330 с.; Васильев Ю. А. Учусь удерживать внимание долгих дум...// Макарьев Л.Ф. Театр. Творчество. Судьба Монография в 2-х. т. — СПб.: РГИСИ, 2020; Лосев А.Ф. Эстетика Возрождения. – М.: Мысль, 1978; Tovstogonov G. Sahna ko'zguisi. (Rus tilidan J.Mahmud tarjimasini) //Jahon adabiyoti.-Toshkent, 2017. № 5-6 (240-241). Tolstix V.I. va boshq. Estetik tarbiya. – Toshkent: O'qituvchi, 1984; Боров Ю.Б. Эстетика. – М.: Высшая школа, 2002; Андреева И.М. Взаимосвязь театра и театрализованного сознания в социуме. Автореф. дис. ... док. филос. наук. – Краснодар: 2006; Адрианова Т.О. Социальные функции театра. //Вестник Челябинского государственного университета. 2012. № 35 (289); Дмитриевский В.Н. Театр, зритель, критика: Проблемы социального функционирования. Автореф. дис. ... док. искусств. -Санкт-Петербург: 1991; Дмитриевский В.Н. Театр и зрители. Отечественный театр в системе отношений сцены и публики: от истоков до начала XX века. - Санкт-Петербург: Дмитрий Буланин, 2007.

⁶. Avloniy A. Tanlangan asarlar. II jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006; Behbudiy M.Tanlangan asarlar. I jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007; Cho'lpon A. Adabiyot nadir. - Toshkent: Cho'lpon, 1994; Isломov T. Tarix va sahna. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1998; Rahmatullayeva D. O'zbek teatri: tarixiy drama. – Toshkent: San'at, 2004; Rahmonov M. Hamza nomli o'zbek davlat akademik drama teatri (1914-1960). – Toshkent.: 2001; Sayfullayev N. Yangi davr O'zbekiston teatri: Rivojlanish muammolari va izlanish jarayonlari. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2011; Tursunov T. XX asr o'zbek teatri tarixi (1900-2007). – Toshkent: Art-press, 2010; Qodirov M., Qodirova S. O'zbek teatri tarixi. Darslik. – Toshkent: Niso Poligraf, 2019; Qodirov M. Masxaraboz va qiziqchilar san'ati. (Farg'ona an'anaviy teatri). – Toshkent: Fan, 1971; Qodirov M. Temuriylar davri tomosha san'atlari. – Toshkent: San'at, 2007; To'laxo'jayeve M. XX asr teatr islohotlari. //Jahon adabiyoti. –Toshkent, 2014. -№1(200).

uzviy kelishi, sahna harakatlari va mizanssena yaratish qoidalari, aktyor va auditoriya, dramaturg va rejissyor, mahorat va ijod muammolari tadqiq qilinadi. Ikkinchi toifaga adabiyotshunos va filologlar, jumladan, professorlar A.Fitrat, H.Abdusamatov, Sh.Rizayev, O.Tojiboyeva kabilarni sanab o'tish mumkin. Ularning bir qator tadqiqotlari va asarlarida pyesalar va spektakllar dramaturgiyasi, qonuniyatlari, muammolar va ularning yechimlari borasidagi bahs-munozaralar o'rin olgan⁷. Uchinchisi faylasuflar - B.Abdurahmonov, E.Umarov, T.Mahmudov J.Jabborov, M.Umarovlardan iborat bo'lib, ularning izlanishlarida teatr san'ati falsafiy jihatdan tahlil qilinadi va badiiy-estetik ijod muammolari tadqiq etilgan⁸. Ammo, yuqorida nomlari qayd etilgan izlanishlarda teatr san'atining ekzistensial jihatlari va uning badiiy-estetik hamda milliy ong shakllanishga ta'siri juda kam o'rganilgan va kompleks tahlil etilmagan. Aynan shu holat mazkur dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining «Jamiyatni isloh etish va modernizatsiyalash jarayonida estetik tarbiyani rivojlantirishning milliy asoslari» mavzusidagi OT-A1-98-sonli amaliy loyihasi hamda «Zamonaviy axloq falsafasining milliy-mintaqaviy va global muammolari» ilmiy-tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi teatr san'atining falsafiy ekzistensial mohiyati va milliy ong shakllanishiga ta'sirini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

teatr san'ati genezisining badiiy ong va etnoestetik tajribalar, ommaviylashish va professionallashuv jarayonlari bilan permanent bog'liqligini asoslash;

o'zbek teatrlarining tarixiy obrazlar yaratish orqali retsipientlarda milliy o'zlikni anglash va milliy ongni yuksaltirish borasidagi estetik-artologik va etnoestetik tajribalari, izlanishlarini ochib berish;

mustaqillik yillarida o'zbek teatrlarida olib borilgan estetik-artologik izlanishlarning ijtimoiy-ma'naviy hayotga, retsipientlar milliy ongiga ta'sirini asoslash;

zamonaviy teatrlardagi estetik-artologik izlanishlarning Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish g'oyasi bilan bog'liqligini va bu bog'liqlikning ekzistensial-funksional ahamiyatini ochib berish;

zamonaviy retsipientda milliy ongni shakllantirishning samarali estetik-artologik usullarini aniqlash va bu borada ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida teatr san'atining falsafiy-ekzistensial mohiyati tanlangan.

⁷ Rizayev Sh. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq, 1997; Rizayev Sh. Iztirob san'ati: adabiyot, teatr, kino, musiqa... – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013; Tojiboyeva O. Teatr san'atida xalq udumlari. //San'at. –Toshkent, 2010. -№3;

⁸ Mahmudov T. Go'zallik va hayot. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977; Umarov E. Estetika (Nafosatshunoslik). – Toshkent: O'zbekiston, 1995; Umarov M. Voqealar tizimi tomoshaning asosidir. //Jahon adabiyoti. –Toshkent, 2015. -№5; Umarov M. Sahnaviy xarakter yaratish mashaqqatlari. //Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2014. -№11; Umarov M. Teatr san'ati qoidalari. //Jahon adabiyoti. –Toshkent, 2014.-№11;

Tadqiqotning predmeti teatr san'atining ekzistensial mohiyati va uning milliy ong shakllanishiga ta'sirini falsafiy-estetik jihatdan asoslash bilan belgilanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada retrospektiv va kontent tahlil, analiz va sintez, artmetrik tahlil, so'rovnoma, ekspress savol-javob, qiyosiy tahlil va etnomadaniy kuzatuv kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

teatr san'atining ekzistensial mohiyati insonning borliqni estetik-artologik idrok etishiga, genezisi va shakllanishi esa, ommaviylashuv va professionallashuv bosqichlaridagi etnoestetik tajribalarga hamda badiiy-estetik ongda ro'y bergan permanent o'zgarishlarga borib taqalishi asoslangan;

O'zbekiston teatrlarining retsipientlarda milliy o'zlikni anglash va tarixiy ongni yuksaltirish borasidagi badiiy-estetik, ijtimoiy-madaniy, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlari va milliy qahramon yaratishga oid etnoestetik tajribalari, estetik-artologik izlanishlari ochib berilgan;

o'zbek teatrlaridagi modernizatsiya jarayonlarining milliy ongni yuksaltirishga yo'naltirilgan potensial retsipient-tasodifiy retsipient-faol retsipient tizimi orqali oddiy auditoriyani faol retsipientga aylantirish va ushbu retsipientlar faolligiga tayanish hamda ijodiy hamkorlik o'rnatish orqali teatrning imijini yaratishning differensial xususiyatlari aniqlangan;

o'zbek teatr san'atida zamonaviy o'zbek teatrlaridagi milliy qahramon va etnoportret yaratish, potensial retsipientdan faol retsipientni shakllantirish, teatr bilan auditoriya o'rtasidagi ijodiy hamkorlik va dialog o'rnatish jarayonlarining milliy qadriyatlarni ulug'lash, xalqchilik, ommaviylashish va professionallashuv singari etnoestetik jihatlari ochib berilgan;

teatrlarda Uchinchi Renessans g'oyasini targ'ib etish orqali retsipient milliy ongida Yangi O'zbekiston obrazini shakllantirish, retsipientning badiiy-estetik ehtiyojlarini qondirish, badiiy-estetik didini yuksaltirish va uni faol retsipientga aylantirishning umumfalsafiy paradigmalari, ilmiy-etimologik, estetik-artologik, ekzistensial-falsafiy, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy tamoyillari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

teatr san'atining genezisi milliy ong va etnoestetik tajribalar bilan permanent bog'liqligi haqidagi ilmiy-nazariy va falsafiy qarashlar, teatrga tomoshabinlarni jalb etish, potensial tomoshabindan faol (real) retsipientlarni shakllantirish, tarbiyalash vazifalariga yo'naltirilgani aniqlashtirilgan;

o'zbek teatrlaridagi milliy ong va umuminsoniy g'oyalarni targ'ib etuvchi asarlar qahramonlarini teatr sahnasiga olib chiqish Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini qurish g'oyasi bilan bog'liq ekanligi sababli zamonaviy teatrlar oldiga qo'yilgan mutlaq yangi, modernizatsion va innovatsion vazifalarni faqat faol retsipient bilan ijodiy hamkorlikda amalga oshirish mumkin ekanligi isbotlangan;

Uchinchi Renessans g'oyasini targ'ib etish va milliy ongni shakllantirish bo'yicha o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ommaviy axborot vositalarining mediakontentlarini tayyorlashda, yoshlarning badiiy saviyasi va dramaturgiya

sohasidagi bilimdonligini aqirlashga doir turli madaniy tadbirlar, talabalar teatr festivallarini tashkil qilishda nazariy-metodologik asos sifatida qo'llanilgan.

Tadqiqotni amalga oshirishda rasmiy manbalar: qonunlar, farmonlar, qarorlar va davlat dasturlariga, xalqaro va respublika ilmiy anjumanlarida ilgari surilgan g'oyalarga tayanilganida, muammoga oid xabarlar turli nashrlarda va ilmiy davralarda e'lon qilinganida, ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalarning ijtimoiy-tarbiyaviy institutlar faoliyatiga joriy etilgani va olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan g'oyalar va chiqarilgan falsafiy-estetik xulosalar san'at falsafasi, estetika, badiiy ijod va teatrshunoslik fanlarini yangi fikrlar va yondashuvlar bilan boyitishda, yangi ilmiy tadqiqotlar uchun yo'nalish, ilmiy-metodik tavsiya, konseptual g'oyalarni aniqlashtirish va bu borada noan'anaviy, innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni ilmiy asoslashga yordam berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, teatr jamoalari, ulardagi ijodiy kengashlar, dramaturglar uyushmasi, badiiy tanqid bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, teatrshunoslar, badiiy havaskorlik uyushmalari, madaniyat va yoshlar ijodi markazlaridagi teatr truppalari san'at va madaniyat instituti va fakultetlarida o'qitiladigan maxsus fanlarda, darslarda, ilmiy tadqiqotlar olib boruvchi markazlar faoliyatida, yosh tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan tavsiyanomalar, o'quv qo'llanmalari va darsliklar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Teatr san'atining ekzistensial mohiyati va milliy ong shakllanishiga ta'siri bilan bog'liq muammolarni tadqiq qilish borasida olingan ilmiy natijalar asosida:

teatr san'atining ekzistensial mohiyati insonning borliqni estetik-artologik idrok etishiga, genezisi va shakllanishi esa, ommaviylashuv va professionallashuv bosqichlaridagi etnoestetik tajribalarga hamda badiiy-estetik ongda ro'y bergan permanent o'zgarishlarga borib taqalishi asoslanganligiga oid nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida 2019-2021-yillarda bajarilgan IZ-20190881663-raqamli "O'zbek milliy raqs san'atini targ'ib etishga bag'ishlangan vebsayt va multimedia mahsulotlari to'plamini yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2022-yil 21-fevraldagi 01/04-07-son ma'lumotnomasi). Natijada grant loyiha doirasida tayyorlangan elektron dasturlar va tadqiqotlarning ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

O'zbekiston teatrlarining retsipientlarda milliy o'zlikni anglash va tarixiy ongni yuksaltirish borasidagi badiiy-estetik, ijtimoiy-madaniy, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlari va milliy qahramon yaratishga oid etnoestetik tajribalari, estetik-artologik izlanishlari ochib berilganligiga oid nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Teatr Arboblari uyushmasining faoliyatida, bir qator loyihalarni amalga oshirish jarayonida, xususan, 2018-yilning 12-20-may kunlari o'tkazilgan Qo'g'irchoq teatrlarining an'anaviy-ko'rik festivallari, 2019-yilning 25-apreldan 2-maygacha o'tkazilgan I Xalqaro Opera va balet san'ati

festivalini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Teatr Arboblari uyushmasining 2022-yil 1-martdagi 01-01-12-son ma’lumotnomasi). Natijada O‘zbekiston fuqarolarining tarixiy asarlarga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchaytirishga, tarixiy ongni yuksaltirishga, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishishlariga xizmat qilgan;

o‘zbek teatrlaridagi modernizatsiya jarayonlarining milliy ongni yuksaltirishga yo‘naltirilgan potensial retsipient-tasodifiy retsipient-faol retsipient tizimi orqali, milliy ong shakllanishining, oddiy va potensial auditoriyani faol retsipientga aylantirishning, ushbu retsipientlar faolligiga tayanish va ijodiy hamkorlik o‘rnatish orqali teatrning imijini yaratishning differensial xususiyatlariga oid nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining bir qator loyihalarini amalga oshirish jarayonida, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlarida belgilangan ustivor vazifalar ijrosini ta‘minlashda, jumladan, «Palette of Ballet» («Balet jilosi») xalqaro festivali, Teatr san‘ati Xalqaro Forumi, «Debyut», «Seni kuylaymiz, zamondosh!» festivallari loyihalarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2022-yil 1-martdagi 01-12-05-779-son ma’lumotnomasi). Natijada O‘zbekiston fuqarolarining milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishishlariga, oliy ta‘lim muassasalarida barkamol insonni tarbiyalash ishlarini tizimli tashkil etishga xizmat qilgan;

o‘zbek teatr san‘atida zamonaviy o‘zbek teatrlaridagi milliy qahramon va etnoportret yaratish, potensial retsipientdan faol retsipientni shakllantirish, teatr bilan auditoriya o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik va dialog o‘rnatish jarayonlarining milliy qadriyatlarni ulug‘lash, xalqchilik, ommaviylashish va professionallashuv singari etnoestetik jihatlariga oid nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan 2019-2021-yillarda bajarilgan IZ-20190881663-raqamli “O‘zbek milliy raqs san‘atini targ‘ib etishga bag‘ishlangan vebsayt va mul‘timedia mahsulotlari to‘plamini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha eksponentini boyitishda foydalanilgan (O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2022-yil 21-fevraldagi 01/04-07-son ma’lumotnomasi). Natijada amaliy loyiha ijrosini ta‘minlash orqali yoshlarning badiiy-estetik madaniyati va intellektual faolligini oshirishga xizmat qilgan;

teatrlarda Uchinchi Renessans g‘oyasini targ‘ib etish orqali retsipient milliy ongida Yangi O‘zbekiston obrazini shakllantirish, retsipientning badiiy-estetik ehtiyojlarini qondirish, badiiy-estetik didini yuksaltirish va uni faol retsipientga aylantirishning umumfalsafiy paradigmalari, ilmiy-etimologik, estetik-artologik, ekzistensial-falsafiy, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy tamoyillari aniqlanganligiga oid konseptual g‘oyalar, nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan 2021-2022-yillarda O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi «O‘zbekiston» teleradiokanalining «Bedorlik», «Adabiy jarayon», «Ta‘lim va taraqqiyot», «Millat va ma‘naviyat» eshittirishlarining dastur ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyaning 2022-yil 11-martdagi 03-321-98-son ma’lumotnomasi). Natijada tinglovchilarning estetik saviyasini oshirishga, oxirgi

yillarda o'zbek teatr san'atida erishilgan yutuqlar, innovatsion izlanishlar, yangi-yangi sahna asarlari borasidagi bilimlarining shakllanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, OAK ro'yxatidagi jurnallarda 10 ta, xalqaro konferensiyalarda 5 ta va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 42 ta ilmiy ish, jumladan, 1 tasi monografiya, 1 tasi o'quv qo'llanma, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola (10 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya Kirish, to'rtta bob, Xulosa, Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 222 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan, mavzuga oid xorijiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Teatr san'ati va badiiy-estetik ong permanent bog'liqligining ekzistensial-falsafiy tahlili**» deb ataladi. U «Teatr» tushunchasining ilmiy-etimologik, ekzistensial-falsafiy va estetik-artologik talqinlari» (1.1.), «Teatr san'atining ommaviylashish va professionallashish bosqichlari: etnoestetik tajribalar» (1.2.), «Teatr san'ati va uning badiiy-estetik ong bilan permanent bog'liqligi» (1.3.) nomli paragraflarga bo'lingan.

Dissertatsiyada teatr san'ati shakllanishiga qisqacha ilmiy-retrospektiv nazar tashlanadi, uning genezisidagi umumilmiy, badiiy-estetik jihatlar aniqlanadi. Bunday ilmiy-retrospektiv yondashish tadqiqot obyektining immanent va ekzistensialini, funksiyalarini to'g'ri tushunishga, obyekt bosib o'tgan yo'l, shakllanish jarayonlari qanday muammolarga duch kelgani va bu muammolar qay tarzda va qanday ilmiy-metodologik yondashuv orqali hal etilganini bilishga yordam beradi. Ilmiy-retrospektiv tahlil usuli o'tmishda ro'y bergan har narsani o'rganishni nazarda tutmaydi, u ijtimoiy taraqqiyot qonunlarining inson ongi, tafakkuri, qiziqishlari va olamni anglashga bo'lgan munosabatlariga ma'lum bir talablar qo'yishidan kelib chiqadi. Dissertatsiyada teatr san'atiga alohida ekzistensiya sifatida davr talablariga muvofiq ommalashish va professionallashish, keng ma'noda transformatsiyalashish va inversiv rivojlanish xosligi asoslanadi.

Dissertatsiyada teatr san'ati va badiiy-estetik ong o'rtasidagi permanent bog'liqlik, ushbu bog'liqlikning milliy ongga oid jihatlari; bu jihatlar va bog'liqlik teatr san'atining ommaviylashish va professionallashish bosqichlari orqali ochib

berilgan. Bugun teatr san'atida ushbu ikki yondashuvlar sintezlashayotgani ko'rsatiladi. Biroq aynan professionallashish badiiy-estetik ong va bilimga alohida talablar qo'yadi, ijodkor izlanishlarini samarali, betakror badiiy ixtiro darajasiga ko'taradi. Biroq bu doimiy, faol retsipientni va unda ijtimoiy-ma'naviy fazilatlarni shakllantirishni rad etmaydi, balki uni dolzarblashtiradi.

Jahon teatrshunoslari sohada umumiy nazariy yo'nalishni topish muammoga aylanib qolganini, bu esa teatr nazariyasini goho teatr etnologiyasi yoki ayrim ijodiy eksperimental izlanishlardan sun'iy tarzda yangiliklar yaratishga olib kelayotganini ta'kidlashadi⁹.

Teatr san'ati mavjudlik (ekzistensiya)ni badiiy-estetik anglash, ong, tafakkur, bilish va ma'naviy hayot shakllaridan biridir. U deyarli uch ming yildan beri ekzistensial voqelik sifatida madaniyat tarixida mavjud. Ilmiy-retrospektiv nazar tashlasak, teatr san'ati uzoq o'tmishdan bugungi kungacha jamiyatdagi ilk ibtidoiy mifologik, naturfalsafiy qarashlar, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum, inson ongi va gnoseologik tajribalari ta'sirida paydo bo'lib, mazmunan va shaklan o'zgarib, rivojlanib kelganini ko'ramiz. Masalan, qahramonlari ma'budlar, turli maxluqlar, podshoh va qirollardan oddiy insonlargacha bo'lgan teatr san'ati, vaqt o'tgan sari, inson faoliyatining ma'lum bir ko'rinishiga, badiiy-estetik ongi va ma'naviyatiga aylana borgan. Ushbu hol ijtimoiy ong, faoliyat, taraqqiyot va ma'naviyat bilan teatr san'ati o'rtasida permanent (uzluksiz, bir-biriga dialektik bog'liq, izchil) bog'liqlik borligini ko'rsatadi. Teatr insonda badiiy-estetik ong va tafakkur mavjudligi (ekzistensiya) isboti sifatida shakllangan.

Turli yondoshuvlar va etimologik talqinlardan kelib chiqib, «teatr» va «teatr san'ati» atamalariga quyidagicha ta'rif berilgan:

O'zida zamon, makon va fazoni qamrab oladigan, nutq, harakat, musiqa hamda dekoratsiyalar asosida spektakllar sahnalashtiriladigan tomoshalar maydoni teatr deb atalib, teatr san'ati dramaturg, rejissyor, aktyor, musavvir va kompozitorning gnoseologik izlanishlari, falsafiy-estetik ongi, perseptiv tajribalari orqali ekzistensial borliqni badiiy-estetik anglash hamda tasvirlash usulidir.

Dissertatsiyada teatr san'ati ikki: birinchisi – teatr san'atining ommaviylashuvi; ikkinchisi - teatr san'atining professionallashuvi bosqichlariga bo'linib tahlil qilingan.

Ommalashuv davri to XIX asrning oxiri XX asrning boshlarigacha davom etgan. Bu davrda teatr san'ati Yevropadagidek maxsus yozma asarlar, ssenariy va bezatilgan sahnalar orqali uyushtirilmagan, balki ijtimoiy-ma'naviy hayotning uzviy qismi, xalqimizning etnotasavvuri va badiiy-estetik ongi in'ikosi sifatida yuzaga kelgan. Xalq o'yinlari, turli marosimlar va sayillar, ommabop tomoshalar, dorboz va masxarabozlarning harakatlari teatr san'atiga yaqin bo'lgan dramatik, tragikomik ko'rinishlarga ega bo'lsa-da, ular o'sha davrning ijtimoiy-ma'naviy hayotini ifoda etuvchi ommaviy tomosha, ekzistensiya sifatida qabul qilingan.

Teatr san'ati, ekzistensial borliqni badiiy-estetik anglash shakli sifatida, insonning ongi, dunyoqarashi, o'y-tashvishlari, orzu-armonlari, perseptiv va sensitiv kechinmalarini, shuningdek, jamiyatdagi o'zgarishlarni, evrilishlarni,

⁹ Haridy M. A. Theatre in the 21 st Centry. <http://maharidy.com/files/adoc7b833f2fe8b23d1e83d>

ziddiyat va to‘qnashuvlarni so‘z va harakatlar, xarakter va badiiy obrazlar orqali ifoda etgan.

Professionallashuv davrida barcha ma’naviy yuk, mas’ullik dramaturg, rejissyor va aktyorga tushadi. Ular ijodining funksional jihatlariga bag‘ishlab ko‘plab asarlar bitilgan, maxsus tadqiqotlar o‘tkazilgan¹⁰.

Dramaturg, rejissyor, aktyor va musavvir sahna asarlarini yaratish jarayonida voqelik qanday bo‘lsa, uni shunday aks ettirmaydi. Bu voqelikni ular avvalo o‘zini qiziqtirgan, qiynagan o‘y-fikrlari, badiiy-estetik ongi va tajribalari sintezidan o‘tkazadi. Hayot haqiqatidan badiiy-estetik ongi va maqsadiga muvofiq jihatlarni tanlaydi, voqelikni saralab, sahna asariga aylantiradi; «hayot haqiqatidan badiiy-estetik haqiqat yaratadi»¹¹.

Gnoseologik jihatdan ekzistensial borliqni, atrof-muhitni so‘z, harakat, badiiy qiyofa va obrazlar orqali tushunish, anglash teatr san’atining asosiy quroli, vositasi va imkonidir. San’atkor badiiy ijod jarayonida ko‘tarinki kayfiyatda bo‘ladi, shuning uchun harakatlarida sensitiv kechinmalar, hatto g‘ayrihayotiy qarashlar ustuvorlik qilishi mumkin.

Dissertatsiyada teatr san’ati va uning badiiy-estetik ijod turi, alohida voqelik sifatida saqlanib kelishi uning ijtimoiy-ma’naviy hayot, ekzistensial borliq bilan permanent bog‘liqligida, inversiv davom etishida, degan xulosaga kelingan.

Ijtimoiy-ma’naviy hayotni, ekzistensial borliqni badiiy-estetik anglash murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Professionallashuv davrida inson (dramaturg, rejissyor, aktyor, musavvir, kompozitor, tomoshabin)ning estetik ehtiyoji, nafis hissiyotlari, nafosatga qiziqishi, estetik tasavvuri, estetik mushohada yuritishi, estetik bilimi, badiiy ijodni baholay olishi, estetik didi, ideallari, iste’dod darajasi kabilar muhim o‘rin egallaydi. Bu bosqichda insonning badiiy-estetik ongi, ma’naviy olami tadqiqot markaziga chiqadi.

Dissertatsiyada teatr san’ati ekzistensial borliqni obrazlar, simvollar, xatti-harakatlar va artefaktlar orqali ifoda etib, tajribalarini inversiv davom ettirib, retsipientda hayotga munosabat uyg‘otadi, undagi badiiy-estetik didni, ong va tafakkurni, ijodiy imkoniyatlarni faollashtiradi. U retsipientni hayotning, mavjudlikning mohiyati, unda insonning o‘rni haqida o‘ylashga, ulug‘vorlik va tubanlik, fojiviylik va kulgililik kabi voqeliklarni farqlashga, mavjud hayotiy muammolarini yangi ideallari orqali baholashga o‘rgatadi. Teatr san’atining professionallashuvi, o‘z navbatida, retsipientning ham professionallashuvini taqozo etadi, degan xulosa chiqarilgan.

¹⁰ Белинский В.Г. О русских классиках. – М.: Художественная литература, 1979; Толстой Л.Н. О литературе и искусстве. – М.: Художественная литература, 1981; Чехов А.П. О театре. – М.: Художественная литература, 1982; Виноградская И.Н. Жизнь и творчество К.С.Станиславского. В 4 томах. Том 3. – М.: Искусство, 1973; Малый театр. 1824-1974. Том 1. – М.: Искусство, 1978; Станиславский К.С. Моя жизнь в искусстве. – М.: Искусство, 1978.; Эфрос А. Профессия - режиссёр (сборник). – М.:Вагриус, 2000; Обзор зарубежных исследований театра и проектов будущего. – М.: ГИТИС, 2019; Theatre, Theory, Theatre The Major Critical Texts from Aristotle and Zeami to Soyinka and Havel. 2000; Billington M. Whatever you want. 2001; Fortier M. Theory /Theatre An Introduction. 2002/ <https://books>; Чаббак И. Мастерство актера. – М.: Искусство, 2004.; Театр изобретает себя каждый день. Перспективы будущего нашей культуры в XXI веке. 2009. [http// archive](http://archive); Чаббак И. Мастерство актера. – М.: Искусство, 2004.; Театр изобретает себя каждый день. Перспективы будущего нашей культуры в XXI веке. 2009. [http// archive](http://archive)

¹¹ Валери П. Об искусстве. – М.: Искусство, 1976. – С.39.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Milliy o'zlikni anglash va o'zbek teatrlarida milliy qahramon tasviri**» deb atalgan. U «Tarixiy ong va milliy qahramon obrazini yaratish muammolari» (2.1), «Xalq – milliy qahramon: etnoportret yaratishning ekzistensial-falsafiy va estetik-artologik jihatlari» (2.2) degan mavzularni o'z ichiga oladi.

Dissertatsiyada mustaqillik yillarida O'zbekiston teatrlarida olib borilgan badiiy-estetik izlanishlar, ayniqsa milliy qahramon yaratishga oid tajribalar tadqiq etilgan. O'z erkini, mustaqilligini qo'lga kiritgan xalq nohaq unutilgan, berahm qatog'on qilingan farzandlari nomlarini qayta tiklashga, ularning millat oldidagi xizmatlarini obyektiv baholashga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun ham tarixiy mavzulardagi asarlarni sahnalashtirish obyektiv zaruriyat edi. Natijada milliy o'zlikni anglash, tarixiy ongni o'stirish o'zbek teatrlarining asosiy mavzularidan biriga aylandi. Teatrda ma'lum bir badiiy-estetik maqsadga xizmat qiluvchi qahramonlar sahnaga olib chiqiladi. Milliy o'zlikni anglash va tarixiy ongni shakllantirishda avvalo tarixiy shaxslar obrazlari muhim rol o'ynagan. Bu obrazlar, tirik paytlarida, ijtimoiy-tarixiy missiyani o'z zimmasiga olib, xalq dardini yengillashtirishga intilgan, uning ezgulik, adolat va tenglik haqidagi tasavvurlarini tarannum etgan. Shu sababli ular xalq qahramonlari, etnoportretidir.

Dissertatsiyada etnoportretni yaratish, unda aktyorning o'rni, «qahramon-shaxs» va «qahramon-xalq» masalalari ham muhokama qilingan. Teatr sahnasida etnoportret konkret aktyorlar, obrazlar orqali yaratiladi, bu paytda aktyor-qahramon o'zining ijtimoiy fazilatlarini, millati, xalqi niyatlarini ro'yobga chiqarish uchun kurashadi. Umum (xalq, millat)ning xislatlari qism (aktyor, qahramon) xatti-harakatlarida, ichki kechinmalari va intilishlarida mujassam bo'ladi. Bunday rolning qanchalik haqiqatga to'g'ri kelishi borasida teatrshunoslikda biror fikr uchramaydi, shunday bo'lsa-da, tarixiy obrazlar etnoportret haqida ma'lum bir taassurotni shakllantiradi.

Tarixiy ongni shakllantirishda san'at muhim ijtimoiy-ma'naviy va falsafiy-estetik vazifani bajaradi. Har bir tarixiy shaxs obrazi, uning betakror va qahramonona hayoti tarixiy ongning shakllanishi, milliy o'zlikni anglash uchun bebaho manba.

Tarixiy voqelik va jarayonlarni badiiy-estetik idrok etishga qaratilgan teatr san'ati bilan milliy o'zlikni anglash o'rtasida dialektik bog'liqlik mavjud. Tarixiy ong o'tmishni, tarixiy voqelikni anglash bilan bog'liq gnoseologik tajriba mahsuli hisoblanadi. Abu Nasr Forobiyning yozishicha, «Odamlarning bir avlodi o'lib ketgach, ularning jismlari yo'q bo'lib ketadi, ammo ruhlari vujud (qiyofasi)dan qutulib, saodatga erishadilar. So'ng boshqalar ularning o'rnini egallab, ular qilgan ishlarni qiladilar. Bu avlod odamlari ham dunyodan o'tgach, xuddi shunday yo'l bilan ruhlari avvalgilarning izidan borib, qiyofalari (fe'l va fazilatlarini), quvvati va sifati o'xshash, yaqin ruhlari bilan qo'shilishlari mumkin»¹². Mutafakkirning fikridan ma'lum bo'ladiki, tarixiy ong va tarixiy xotira avlodlar ruhi o'rtasidagi yaqinlikdan, bir-birining izidan borish orqali shakllanadigan, «quvvati va sifati o'xshash» voqelikdir.

¹² Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. – B.164.

Tarixiy-madaniy merosga, buyuk ajdodlarimiz hayoti va ijodiga murojaat etish, ularni hech qanday «tizim»siz, obyektiv tasvirlash teatrlarimiz metodiga aylangan. Buyuk ajdodlarimiz nomlarining tiklangani, ma'naviy merosini o'rganish, xalqqa yetkazish va targ'ib etish an'anaga aylangani e'tiborlidir. Bu o'rinda oxirgi yillarda O'zbek Milliy akademik drama teatrida «Alisher Navoiy» (Uyg'un va Izzat Sulton), «Mirzo Ulug'bek» (M.Shayxzoda), «Jaloliddin Manguberdi» (N.Eshonqul), Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik Katta, Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat, Jizzax viloyat musiqali drama teatrlarida «To'maris» (M.Osim), Namangan viloyat musiqali drama teatrida «Amir Temur yohud adolat qilichi» (A.Samad), Surxondaryo viloyat musiqali drama teatrida «Allomai zamon» (U.Uvatov, G'.Shermuhammad) va «Kichik shahzoda», Xorazm viloyati qo'g'irchoq teatrida «58-xon», Qoraqalpoq davlat Yosh tomoshabinlar teatrida «Vatan tuprog'i» (A.Sulton), Qashqadaryo viloyati qo'g'irchoq teatrida «Tafakkur sohibi-Zahiriddin Muhammad Bobur» (K.Dilmonov), Buxoro viloyati musiqali drama teatrida «Imom Buxoriy» (U.Qo'chqor), Marg'ilon musiqali maqom teatrida «Shashmaqom», «Muhabbat Sultoni» (H.Rasul) kabi spektakllarning sahnalashtirilgani misol bo'lishi mumkin. Mazkur spektakllarni tomosha qilish, aktyorlar, rejissyorlar va retsipientlar bilan muloqotlar shundan dalolat beradiki, obyektiv, jonli, kishilar his-tuyg'ulariga ta'sir etuvchi asarlarga qiziqish yuqori.

Tarixiy shaxslarning hayoti va ijodini teatr sahnasida tasvirlash katta ma'naviy-ma'rifiy funksiyalarni bajaradi. Teatr sahnasidagi jonli obrazlar kishilar ongida o'tmishga nisbatan obyektiv fikr uyg'otadi, ularning tarxiiy bilimlarini boyitadi. Masalan, Jizzax viloyat musiqali drama teatri namoyish etgan «To'maris» (M.Osim) dramasi tomoshasidan keyin retsipientlarimizning 88% To'maris (N.Mirzayeva, aktyor) to'g'risida ommaviy axborot vositalarida eshitganini, uning qalb kechinmalari, shaxsiy hayoti, yovuz kuchlarga qarshi oqilona kurashganidan yaxshi xabardor bo'lmaganini bildirgan. Ularning deyarli 90% dan ziyodi Sparangiz (J.Hazratqulov, aktyor) malikaning o'g'li sifatida Eron bosqinchisi Kayxusrav (B.Eshmatov, aktyor) hiylasi, yovuzligi qurboni bo'lganidan mutloq bexabar bo'lganini aytgan. To'g'ri, ular To'maris va uning o'g'li Sparangiz haqida u-bu narsa eshitgan, ammo ularning qanday tarzda vatanparvar bo'lishgani haqida aniq, hayotiy tasavvurga ega emas ekanliklarini bildirishgan. O'zbek Milliy akademik drama teatri sahnalashtirgan «Jaloliddin Manguberdi» (N.Eshonqul) pyesasi dolzarb va aktyorlarning mahorati ifodasidir. Jaloliddin Manguberdi (L.Orziyev, aktyor) obrazi mard, jasur, olovqalb shahzodaning orzu-tilaklarini ifoda etadi, u retsipient ongi va dilini chulg'ab oladi. Spektakl haqida retsipientlarning fikrini umumlashtirsak, ularning aksariyati, ya'ni 85% ga yaqini R.Yarasheva (Turkon xotun obrazi) va L.Orziyevning (Jaloliddin Manguberdi obrazi) mahorati yaqqol sezilib turganini qayd etishgan. Ularning deyarli yarmi (48-50%) tarixiy voqelikdan uncha-muncha xabardor ekanliklarini, ammo teatr sahnasida ular yanada ishonchli, ta'sirchan ko'rsatilganini ta'kidlashadi. Sahna tili-jonli til, u shunchaki informatsiya, sanalar ifodasi emas, unda retsipient his-tuyg'ularini junbushga keltirish metodi, texnologiyasi bor. Ushbu metodi, texnologiyasi tufayli teatr san'ati tarixni, tarixiy voqea-hodisalarni, faktlarni

jonlantiradi, tarixiy ongning shakllanishiga yordam beradi. Respondentlarimizning (oddiy va potensial auditoriya vakillari birgalikda) 71% ham o‘zbek teatrlarining yutug‘i tarixiy mavzulardagi spektakllar ekanini ta’kidlashadi. Bu ko‘rsatkich faol retsipientlar ichida 88%ni tashkil etadi.

Teatr ijodkorlari ham, adiblar va musavvirlar ham tarixshunoslar qarashlariga, ilmiy tadqiqotlar natijalariga tayanadilar. Ming afsuski, o‘zbek tarixchiligi hanuz sovet davrida shakllangan metodologiyadan, mafkuraviy ta’sirlardan butunlay qutulolgan yo‘q. To‘g‘ri, o‘tgan yillar davomida Amir Temur¹³, jadidchilik harakati namoyondalari, qatag‘on qurbonlari kabi milliy qahramonlarimiz ma’naviy merosiga, hayoti va faoliyatiga obyektiv yondashuv, muayyan ilmiy konsepsiyalar shakllandi. Biroq, Afrosiyob, Atilla, Muhammad Shayboniyxon, Abdullaxon, Amir Shohmurod, Dukchi Eshon singari siymolar, «bosmachilik» (milliy ozodlik) harakati namoyondalarining faoliyatiga yetarlicha, obyektiv baho berilgani, ularning badiiy-estetik obrazlari yetarli tasvirlangani yo‘q.

Tomoshabinning qalbidan chuqur o‘rin egallagan, badiiy-estetik jihatdan barkamol obrazlar, milliy qahramonlar portretlarini yaratish hamon muammo bo‘lib turibdi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvda ta’kidlaganidek: «Necha yillardan beri masala qo‘yamiz – zamonaviy qahramon obrazini yarataylik, deb. Lekin birorta jiddiy natijaga erisholdikmi?»

Albatta, bu borada qandaydir intilish va harakatlar ko‘zga tashlanayotganini, badiiy va publitsistik asarlar, pyesa va kinolentalar paydo bo‘layotganini inkor etib bo‘lmaydi. Ammo ularning ko‘pchiligi yurakdan chiqmagan, zo‘rma-zo‘raki urinishlar bo‘lib, hali madaniy hayotimizda voqea bo‘ladigan yetuk va mukammal asarlar yaratilgani yo‘q, desak bu ham haqiqat bo‘ladi»¹⁴. Bir paytlar butun xalqimiz nazariga tushgan Mirzo Ulug‘bek (Sh.Burxonov), Alisher Navoiy (A.Hidoyatov va O.Xo‘jayev), Farmonbibi (Z.Sadriyeva), Toshbolta (S.Xo‘jayev), Mo‘min chol (G‘.A‘zamov), Sulaymon ota (Sh.Burxonov), O‘tkuriy (O.Yunusov) va boshqa shu singari qahramonlar obrazlari hozircha yaratilgani yo‘q.

Tarixiy mavzularga murojaat etgan teatr «qahramon-shaxs» va «qahramon-xalq» obrazlariga duch keladi. Xalqni tasvirlamoqchi bo‘lgan teatr shaxs (qahramon)ni tasvirlaydi, ushbu shaxs (qahramon) bor sifatlari, hayoti va ijodi, hatto ichki og‘riqlari bilan xalq orzu-tilaklarini, ekzistensial borlig‘ini tasvirlaydi. Teatr sahnasi cheklangan, u xalqni aniq shaxs (qahramon, obraz, tip) orqali sahnaga olib chiqadi. Xalq obrazini tasvirlamoqchi bo‘lgan qahramon ziddiyatli kechinmalarga, beorom izlanishlarga beriladi, u yaratgan obraz uning shaxsiy xislatlari bo‘lib qololmaydi, u «tip yaratadi». San’atkorning «qahramon-shaxs»dan «qahramon-xalq» darajasiga ko‘tarilishi uning ana shu tipni yaratishi tufaylidir. «Qahramon-shaxs» va «qahramon-xalq» obrazlarini yaratish teatrning ekzistensial borliqqa munosabati ifodasidir.

¹³ Qisqa vaqt ichida respublika teatrlari tomonidan Amir Temur faoliyatiga bag‘ishlangan 14 ta spektakl sahnalashtirilgan. Sayfullaev N. Yangi davr O‘zbekiston teatri: Rivojlanish muammolari va izlanish jarayonlari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011. – B.12.

¹⁴ Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish — xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir// Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasidan. //Teatr. -Toshkent, 2017. -№ 4. –B. 3.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Uchinchi Renessans va o‘zbek teatrlarida modernizatsiya jarayonlari**» deb ataladi. U «Uchinchi Renessans g‘oyasi va o‘zbek teatrlarida milliy ongni shakllantirishga qaratilgan estetik-artologik izlanishlar» (3.1), «O‘zbek teatrlarida modernizatsiya jarayonlari: umuminsoniylik muammolarining estetik-artologik tasviri» (3.2) deb atalgan mavzularni o‘z ichiga olgan.

Dissertatsiyada Uchinchi Renessans poydevorini qurish g‘oyasining dolzarb mavzu sifatida badiiy-estetik izlanishlar va ijtimoiy-ma’naviy hayotdan o‘rin olishi ochib beriladi. Uchinchi Renessans - milliy g‘oya, milliylik va umuminsoniylik tamoyillarini o‘zida mujassam etgan voqelik. Shuning uchun u ekzistensial borliqqa oid milliylik va umuminsoniylik masalalari bilan uyg‘un keladi. Teatr sahnasidagi izlanishlar ana shu uyg‘unlik, ekzistensiya nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Badiiy-estetik ijod, ijtimoiy genezisi va mohiyatiga ko‘ra, milliy madaniyatga taalluqli faoliyat, izlanish turidir. Ijodkorning o‘zi ma’lum bir millat, milliy makon vakili sifatida izlanadi, ijodiy faoliyat olib boradi. Shuning uchun uning ushbu izlanishlari va faoliyati avvalo milliylik, ekzistensiya ifodasi sifatida idrok etiladi, baholanadi. Teatr sahnalarida ko‘rsatilayotgan asarlar esa etnomadaniy ekzistensiyani tasvirlab, spektakllarga milliylik baxsh etadi. Bu milliylik asarning nomlanishidan tortib to aktyor nutqi va xatti-harakatlari, kiyimlari, mizanssena va sahnaning badiiy bezaklari, kuy va qo‘shiqlarning berilishi, asar g‘oyasigacha o‘z ichiga oladi. San’atkor, hatto u boshqa etnomadaniy obrazga, ekzistensiyaga murojaat qilayotganida ham, o‘z milliy-ma’naviy muhiti ta’siridan mutlaq xoli bo‘lolmaydi.

Tadqiqotda umuminsoniy g‘oyalarning badiiy-estetik ijodda, xususan, sahna asarlarida ifodalanishi, tasvirlanishi masalalari yoritiladi. Unda milliylikning umuminsoniylikka aylanishi, bu jarayonda san’atkorlar ijro etadigan rollarning talqini, mavzuni auditoriyaga, tomoshabinga yetkazib berish qobiliyati, mizanssena yaratilishi, dekoratsiya kabilarda ekzistensial borliqqa taalluqli milliy va umuminsoniy belgilarning ifodalanishi muhokama qilingan.

Uchinchi Renessans poydevorini qurish g‘oyasini Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ilgari surgan. U Uchinchi Renessansning milliy va umuminsoniy negizga ega fenomen, ekzistensiya ekanini ta’kidlaydi: «Bugun biz davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etgan holda, mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo‘lida katta qadamlar qo‘ymoqdamiz... Endigi vazifamiz yangi avlod beruniylarini, ibn sino va ulug‘beklarini, xorazmiy va farg‘oniylarini tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat»¹⁵. Demak, Uchinchi Renessansda milliy va umuminsoniy tajribalar mujassam bo‘ladi.

Milliylik badiiy-estetik ijodning ijtimoiylik, demokratik, majoziylik, tarixiylik, baynalmilallik kabi xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Milliylik aks etmagan san’at janri, turi bo‘lishi mumkin emas. San’atning qaysi turida ijod qilishidan qat’iy nazar, har bir ijodkor o‘z asariga beixtiyor o‘zi mansub millatning, xalqning ruhini, ichki va tashqi qiyofasini, fikrlash tarzini, so‘zlash ohangini, mentalitetini, axloqiy

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yoshlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. // Yangi O‘zbekiston. –Toshkent, 01.07.2021.

xatti-harakatlarini, ma'naviy-estetik qarashlarini mujassamlashtiradi. Ushbu xususiyatlar orqali muayyan xalq yohud millatning boshqasidan farqi, o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. Har bir millat vakilining ijod mahsulida go'zallik va xunuklik, ulug'vorlik va tubanlik, fojaviylik va kulgililik kabi estetik voqeliklar o'sha xalqning milliy ruhi, milliy qadriyati va an'analari singdirilishi natijasida originallik, betakrorlik kasb etadi. Shuning uchun milliylik yuksak badiiy mahorat bilan ifodalangan asarlar san'at ixlosmandlarida mudom qiziqish, hayrat uyg'otib keladi.

Milliy o'zlikni anglashning kuchayishi, milliy qiyofa orqali jahon maydonlariga chiqish ishtiyoqi ijodkorlarni ham shaklan, ham mazmunan milliy asarlar yaratishga undagan. Ayni paytda ushbu hol, ming afsuski, globallashuv ta'sirida, milliylik ham ichki mohiyatiga, ham tashqi belgilariga ko'ra, odamlar hayotidan chiqib ketayotgani, ko'proq sahna asarlariga, kino lentalariga, muzey eksponatlariga ko'chib o'tayotganini, antikvar xususiyat kasb etayotganini, san'atning shaxs, tomoshabin (retsipient) estetik didiga, ma'naviy borlig'iga ta'siri pasayib ketayotganini ham ko'rsatadi.

Rejissyorlar ham, aktyorlar ham sahnaviy talqinlarida milliylikka intilayotgandek, milliylikni ko'rsatishga urinishayotgandek ko'rinsalar-da, ba'zan pinhona, ba'zan oshkora g'arbga, xususan, sovet teatr maktabi an'alariga taqlid qilayotgani, sodiqligi sezilib turadi. Yevropacha teatr san'ati asosida modernizatsiyalashga kirishilganiga 100 yildan oshgan. Mahmudxo'ja Behbudiy, Mannon Uyg'ur va boshqalar o'zbek milliy teatr san'ati qiyofasini yaratish borasida muayyan yutuqlarga erishgan bo'lsalar-da, ularning o'zbek xalq teatri an'analari va Yevropa teatr san'atini uyg'unlashtirish, o'zbek teatr san'ati yo'nalishi, uslubi va usulini yaratish borasidagi xatti-harakatlari, iztirobli izlanishlari tajriba, sinov darajalaridan yuksalib, o'z o'zaniga ega ulkan bir daryoga aylanib ketolmadi. Hali-hanuz o'zbek ijodkorlari kimlargadir taqlid qilish, ko'r-ko'rona ergashish, eklektik yo'lda ijod qilishga majbur. Hali-hanuz modernizatsiyalashgan o'z uslubimizga, yo'nalishimizga ega emasligimiz ortidan go'yoki «bag'rikenglik» qilamiz, istalgan zamonaviy tendensiyalarni o'z ijodimizga olib kiraveramiz, milliy madaniyatimiz konsepsiyasiga mos keladimi-yo'qmi, amaliyotda qo'llayveramiz. Hali-hanuz o'zbek milliy teatr san'atining jahon maydonlarida tan olingan, e'tirof etilgan, e'tiborga arziqli, modernizatsiyalashgan badiiy-estetik qiyofasi yo'q.

Shuningdek, ayniqsa, o'tgan asrning 80-90-yillarida milliylikni ifodalash, milliy turmush tarzini ko'rsatish shiori ostida teatrlarimiz maishiy mavzularga mukkasidan ketgani kuzatiladi.

O'zbek teatri, professionallashuv bosqichiga o'tgandan beri, umuminsoniy madaniyatni va g'oyalarni badiiy-estetik izlanishlari, sahna asarlari va obrazlari orqali targ'ib etib kelgan.

O'zbekiston jahonda kechayotgan globallashuv, integratsiya jarayonlaridan, ekzistensial o'zgarishlar va umumfalsafiy paradigmalardan chekkada qolayotgani yo'q. Mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy taraqqiyot ham milliy, ham umuminsoniy g'oyalarni rivojlantirish, barcha sohalardagi ilg'or tajribalarni ijodiy o'zlashtirish yo'lidan bormoqda.

Etnoteatrlarimizning chet mamlakatlardagi ijodiy truppalari bilan olib borayotgan aloqalari, birgalikda o'tkazilayotgan xalqaro festivallar, ko'plab spektakllarimizning nufuzli xalqaro anjumanlarda yuqori baholanayotgani badiiy-estetik ongimizda, izlanishlarimizda umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma'naviy g'oyalar o'z aksini topayotganini, san'atkorlarimiz, madaniyat, ijtimoiy va siyosiy sohalar mutasaddilarining dunyoqarashi, san'atga munosabati tobora ijobiy tomonga o'zgarib borayotganini ko'rsatadi.

O'zbek teatr san'atida umuminsoniy madaniyatga daxldor ulug' ajdodlarimiz – Ahmad al-Farg'oniy (rejissyor H.Qosimov, bastakor M.Bafojev, dramaturg J.Jabborov, 1998), Jaloliddin Manguberdi (rejissyor A.Xolmo'minov, bastakor A.Otegenov, dramaturg N.Eshonqul, musavvir Sh.Abdumalikov, 2020), Amir Temur (rejissyor O.Salimov, dramaturg A.Oripov, musavvir B.To'rayev, 1996), Mirzo Ulug'bek (rejissyor O.Salimov, dramaturg M.Shayxzoda, Sh.Rizayev tahriri ostida, 2016), milliy qahramonlarimiz – Alpomish (rejissyor M.Ravshanov, dramaturg U.Azim, 2018), To'maris (rejissyor B.Nazarov, dramaturg X.Xursandov, musavvir S.Zunnunova, 2019), Xo'ja Nasriddin Afandi (rejissyor B.Ayubxonov, dramaturg S.Yudakov, bastakor Z.Haqnazarov, musavvir B.Ismoilov, 1997) obrazlari yaratildi, umumjahoniy hodisalar – Buyuk ipak yo'li va Navro'z bayramiga, qadim shaharlarimizga, ulug' allomalar yubileylariga bag'ishlangan mahobatli sahna asarlari, maydon tomoshalari (rejissyorlar B.Yo'ldoshev, N.Abdurahmonov) sahnalashtirildi. 1996-yili A.Hidoyatov nomidagi (hozirgi O'zbek davlat drama) teatrdagi B.Yo'ldoshev tomonidan sahnalashtirilgan, Samarqandda «Sharq taronalari» xalqaro festivalida, keyinroq Toshkentda teatr sahnasida namoyish etilgan «Buyuk Ipak yo'li» spektakli (kompozitsiya muallifi A.Sharipova) «o'zbek teatrida yangi bir uslub yaratilganidan dalolat»¹⁶dir.

Badiiy-estetik ijodni, asarni umuminsoniy g'oyalarga qarab baholash san'at falsafasi va san'atshunoslikda qabul qilingan yondashuvdir. Barcha xalqlar va millatlarga birdek xos bo'lgan umuminsoniy qadriyatlar (o'ldirma, ozor yetkazma, ezgu amal va ezgu niyat bilan yasha, nafsga va fahshga berilma, o'g'irlik qilma, mehnat qilib kun ko'r, oila qurib, jamiyat bilan ahil yasha kabilar) san'at uchun azaliy mavzular hisoblanadi. Teatrdagi barcha badiiy-estetik izlanishlar, transformatsiya jarayonlari ushbu umuminsoniy g'oyalarni targ'ib etadi, tomoshabinda ekzistensial xususiyatga ega gumanistik qarashlarni shakllantiradi. Badiiy-estetik ong markazida ushbu, ekzistensial mohiyatga ega umuminsoniy g'oyalar turadi, ular sahna asarlariga ijtimoiy-gumanistik mohiyat baxsh etib, milliy va ijtimoiy ongni o'zgartiradi. To'g'ri, ekzistensial ahamiyatga ega umuminsoniy g'oyalarga ergashayotganini san'atkor goho sezmasligi, anglamasligi mumkin, uni milliy muammo qiziqtirayotgan bo'lsa ajab emas. Biroq milliylik umuminsoniylikdan ayricha kechadigan voqelik emas. Chin san'atkor, ijodkor instinktiv tarzda milliylikni umuminsoniylik darajasida talqin qila oladi. Bu ekzistensial talab uning qalbidagi, "ichidagi og'riq", badiiy-estetik ong va bilimga asoslangan umuminsoniy tuyg'udir. Umuminsoniy, ekzistensial borliq sintezidan o'tgan milliylik yoki milliy artefakt, ijod, qadriyat voqelikka da'vogar

¹⁶ Sayfullayev N. Yangi davr O'zbekiston teatri: Rivojlanish muammolari va izlanish jarayonlari. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2011. –B.139.

bo'lishi mumkin. Bu transformatsiya jarayonlari oson kechmaydi, ayniqsa bugun ijtimoiy hayotda, badiiy-estetik ijodda musobaqa, raqobat, marketing avj olgan. Teatr san'atidagi transformatsiya jamiyat hayotidagi va ijtimoiy ongdagi evrilishlarning ifodasidir. Transformatsiya mavjud pozitiv tajribaga tayanganida kutilgan natijalar beradi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi «**Teatr va zamonaviy retsipient: ijodiy hamkorlikning milliy va ijtimoiy ong shakllanishiga ekzistensial-funksional ta'siri**» deb atalgan. U «Zamonaviy retsipient va teatrning ekzistensial-funksional tizimi» (4.1), «O'zbek teatri va zamonaviy retsipient: ijodiy hamkorlikning yangi modelini shakllantirish masalalari» (4.2), «Teatr estetik-ekzistensial izlanishlarining zamonaviy retsipientlar milliy ongida dolzarblashuvi» (4.3.) mavzularidan iborat.

Dissertatsiyada teatr bilan retsipient (tomoshabin, shaxs) o'rtasidagi aloqalarning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot talablariga muvofiq tashkil etilishi masalalari o'rganilgan. Teatr san'atining bosh maqsadi - retsipientda milliy ong va ijtimoiy-ma'naviy shakllanishga ta'sir etish. Mazkur ekzistensial funksiyasini u retsipientning bo'sh vaqtini uyushtirish, badiiy-estetik ongini rivojlantirish orqali amalga oshiradi. Shunday funksiyani madaniyatning boshqa institutlari - muzeylar, konsert zallari, madaniyat markazlari, kutubxonalar, yoshlar ijod uylari kabilar ham bajaradi. Shuning uchun teatrlar retsipientda milliy ongning shakllanishiga o'sha institutlar bilan uyg'unlikda hissa qo'shadi.

Dissertatsiyada retsipient shaxsning ijtimoiy-ma'naviy shakllanishiga ta'sir etadigan teatr san'ati usullari, vositalari, badiiy asarni tanlash texnologiyasi, retsipient bilan ijodiy hamkorlikni o'rnatish masalalari muhokama qilingan. Unda retsipient shunchaki tomoshabin bo'lmasligi, balki teatrni innovatsion izlanishlarga undovchi, badiiy-estetik ongi va bilimi yetarli munaqqid, dramaturg, innovator, investor, ijodkor bo'lishi kerak, degan fikr asoslangan. Teatr va retsipient ijodiy hamkorligi zamonaviy teatrni rivojlantirish kafolatidir. Ammo bu hamkorlikni tashkil etuvchi, uni samarali natijalarga yetaklovchi subyekt professional san'atkordir. Aynan mohir san'atkor retsipientda milliy va ijtimoiy ongni yuksaltirish iqtidoriga ega, shuning uchun unga alohida funksional-ekzistensial talab qo'yiladi.

San'at asarining ahamiyati, falsafiy-estetik qimmatini ijodkor yashayotgan ekzistensial borliqqa, tomoshabinlarning milliy va ijtimoiy ongiga, dunyoqarashiga ko'rsatgan ta'siriga qarab baholanadi, qadrlanadi yoki rad etiladi. Binobarin, shu ta'siri orqali san'atkor jamiyat badiiy madaniyati rivojiga va retsipient (shaxs, tomoshabin) ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadi.

San'at asari ijodkor orzusidagi, uning aqli, ko'ngli buyurgan tuyg'ular, fikr va g'oyalar aks etgan badiiy ijod mahsulidir. Teatr san'ati vakillari badiiy-ekzistensial olam yaratar ekanlar, ijod mahsullari – spektakllarning shaxs ijtimoiy-ma'naviy shakllanishiga, ongiga ta'sirini, ularning jamiyat strategik maqsadlariga muvofiqligini nazarda tutadilar. Spektakllar predmeti va obyektini ijtimoiy hayot muammolari, umumjamiyat manfaatlari, jamiyat a'zolarining

o'y-fikrlari va dilini qamragan falsafiy-estetik qadriyatlar nuqtai nazaridan kelib chiqib tanlaydilar.

Izlanishlar teatr shaxs ongini shakllantirishda ma'rifiy funksiyasi orqali ta'sir etishini mahalliy hamda xorijiy ilm-fan va madaniyat vakillari ham tasdiqlaydi. H.Abdusamatov fikricha, «Inson ruhini butun murakkabligi bilan ko'rsata olish, «qalb dialektikasi»ga chuqur kira bilish talab qilinadi. Teatrning eng asosiy burchi esa – tomoshabinni ijtimoiy-ma'naviy tarbiyalash. Shu jihatdan ham uning vazifasi axloqiy-psixologik muhitni yaratishdir. Spektakllar avvalo xalqimiz olib borayotgan katta ishlar bilan hamohang bo'lishi darkor, chunki san'at har qanaqa sharoitda ham xolis, odil, halol bo'lib qolishi darkor»¹⁷. San'at, agar u inson qalbini junbushga keltirsa, uni go'zal va olijanob narsalar yaratishga, artefaktni, ya'ni insoniyat tomonidan yaratilgan sun'iy boyliklarni o'zlashtirishga undasa, o'zining ijtimoiy-tarbiyaviy funksiyasini bajargan bo'ladi. San'atning ma'naviy hayotga ta'siri inson ongi, qalbi, ruhi orqali kechgani uchun, har bir san'at asari, pirovard natijasiga ko'ra, ma'naviy boylik, ijodkor qalbining, ruhining in'ikosidir.

Jamiyatimizda kechayotgan shiddatli yangilanish jarayonlarini, odamlar ongida ustuvorlik kasb etayotgan pragmatik yondashuv va Uchinchi Renessans g'oyasini amalda qaror toptirayotgan zamondoshlarimiz obrazini yaratish bir tomondan, yangilanishga qarshi – korrupsiya, fohishabozlik, poraxo'rlik va giyohvandlik kabi illatlarni qo'llab-quvvatlayotgan salbiy kuchlar xususiyatlarini ochib berish, ikkinchi tomondan dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Har sohada bo'lgani kabi teatrning ham «dushmani» bor. Istalgan rejissyorni yarim tunda uyg'otib, «o'sha dushman kim?» deb so'rasangiz, hech ikkilanmay «dramaturgiya», deya javob beradi. Bunday dramaturgiyaning obyekti ham, subyekti ham retsipientdir.

Dissertatsiyada teatrga ko'p retsipientlar kerak, ayniqsa retsipient-munaqqid, retsipient-dramaturg, retsipient-jurnalist, retsipient-tadqiqotchi, retsipient-hamkasb, retsipient-investor, retsipient-innovator kerak; teatr rivoji uchun shunchaki retsipientning bo'lishi yetarli emas, davrning ilg'or, masalan, Uchinchi Renessans va Yangi O'zbekiston g'oyalarini teatrga joriy etish texnologiyalarini biladigan, uni innovatsion izlanishlarga unday oladigan, bu borada uni qo'llab-quvvatlaydigan retsipient ijodkorlar kerak, degan xulosaga kelingan.

Dissertatsiyada teatr retsipientlari, auditoriyasi (modelini) uch pog'onada tahlil qilingan:

- oddiy (tasodifiy) tomoshabin auditoriyasi;
- faol (doimiy) tomoshabinlar;
- potensial (mutlaq) tomoshabinlar.

Oddiy tomoshabin ko'pincha tasodifan, bir martaga yoki kimningdir iltimosini yerda qoldirolmay teatrga kelgan retsipientdir.

Faol retsipient teatrlarni ijodiy izlanishlarga, badiiy ixtirolarga undaydigan auditoriyadir. Bu retsipient-munaqqid, dramaturg, san'atkor hamkasbi, mediatizimlar, innovator, investor, jamiyat. Ushbu subyektlarning har biri teatrning

¹⁷ Abdusamatov H. Teatr tanqid ko'zglasida. – Toshkent: Fan, 1993. – B.27.

samarali ishlashidan, ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotga, kishilar badiiy-estetik ongining rivojiga munosib hissa qo'shishidan manfaatdor.

Potensial auditoriyaga jamiyat, sotsium kiradi. Ushbu institutlarning har bir a'zosi, faktorlari, subyektlari teatr san'ati uchun potensial tomoshabindir.

XULOSA

O'tkazgan tadqiqotimiz bizni quyidagi ilmiy, falsafiy va badiiy-estetik xulosalarga olib keladi:

1. Ekzistensial borliqni badiiy-estetik anglashning alohida ijod va faoliyat turiga aylanishi inson ongi, madaniyati, gnoseologik qiziqishi va izlanishlari bilan permanent bog'liq, uzoq davom etgan jarayonlar mahsulidir. Mashhur etnograf va arxeologlar o'tkazgan ilmiy-tarixiy ekspeditsiyalar, qazishmalar ko'rsatadiki, ilk odamlarning badiiy-estetik ongi, zamonaviy kishilar tasavvur qilayotganidek, o'ta primitiv va bee'tibor narsa bo'lmagan, balki u o'sha davr odamlarining real ma'naviy-ruhiy holati, sensitiv kechinmalarining ifodasi, mahsuli edi.

2. Insonda badiiy-estetik ong qanday paydo bo'lgan, bu ong tomosha san'atini qay tarzda shakllantirgani borasida savollarga hanuzgacha qoniqarli javob yo'q. Badiiy-estetik tadqiqotlar ko'p, san'at fenomenini anglash borasida fikr bildirmagan faylasuf, ijodkor yo'q, biroq ularda goho falsafiy-estetik yondashuv, umumlashma va davr drammatizmiga muvofiqlik yetishmaydi. Bugun inson ongi, qalbi va kelajakka qaratilgan o'y-xayollari, orzulari tushkunlikka, ikkilanish va "jamiyatdan qochish"ga to'la. Ushbu sertashvish kechinmalarga kimdir va nimadir ishonch, optimizm berishi zarur, aks holda inson kashf etgan barcha madaniy boylıklar qadrsizlanishi mumkin. Madaniyatning qadrsizlanishi insonning qadrsizlanishidir.

3. Teatr san'atiga ilmiy-retrospektiv nazar tashlaganda, u ikkita yirik bosqichni, jarayonni bosib o'tganini ko'ramiz. Ular ommaviylashish va professionallashishdir. Ommaviylashish san'atning kishilar, omma, etnoslar hayotiga yaqinlashishini, asarlar xalq hayotidan olganini anglatadi. Ommaviylashish yozma adabiyot janri yo'qligida muhim ijtimoiy vazifani bajargan, ma'naviy-madaniy boylıklarni avlodlardan avlodlarga yetkazgan. San'atning ommaviylashishi ijtimoiy-ma'anaviy taraqqiyot uchun obyektiv ehtiyoj, zaruriyat edi. Buni to'g'ri anglagan hukmdorlar, mulk egalari va omma san'atkorni qo'llab-quvvatlagan, uning moddiy ehtiyojlarini qondirgan, o'z davrasidan joy bergan, maslahatlari va tanqidlariga quloq tutgan. Shu tariqa san'at bilan omma, xalq o'rtasida ijodiy hamkorlik, dialog o'rnatilgan.

4. Ijtimoiy taraqqiyot, ekzistensial borliq asrlar o'tishi bilan, san'at oldiga katta vazifalar qo'yadi, undan professionallashuvni talab etadi. Professionallashuv ommaviylashish ichida mavjud edi. Asrlar davomida professional dramaturg, professional rejissyor va professional teatrga ehtiyoj tug'ildi. Badiiy-estetik ijodning professionallashuvi o'z navbatida retsipientning ham professionallashuvini talab qildi.

5. Tarixiy ongni o'stirish va bu vazifaga oid qahramonlar obrazini yaratish zamonaviy teatrlarimiz oldidagi vazifalardan biri bo'lib turibdi. Mustaqillikka

erishgandan keyin tarixiy mavzularga murojaat etish an'anaga aylandi. Teatr jamoalari tarixiy shaxslardan qahramonlar obrazlarini yaratishdi. Bu obrazlar tarixiy haqiqatni ifoda etishi, o'sha zamonlardagi hayotni tasvirlashi, retsipientni o'ylashga undashi zarur edi. Teatrlar tarix bilan bahslashishi mumkin emas, hech qanday dramaturg yoki rejissyor o'tmishni boricha, mutlaq tarzda tiklay olmaydi. Shunday ekan, tarixiy ongning shakllanishi tarixiy shaxslar hayoti, o'y-kechinmalari va fojialarini to'laqonli, ta'sirchan badiiy-estetik syujetlar, usullar bilan tasvirlanishiga hamohangdir.

6. Tarixiy ong-subyektiv voqelik. Retsipientda teatr va uning auditoriyasi bilan bevosita muloqot, bu jarayonga san'atkorni jalb etish, u bilan fikr almashish imkoniyati bor. Aynan ushbu imkoniyat teatrni ta'sirchan ijod usuliga aylantiradi. Tarixiy ongning subyektivligi obrazlarda, qahramonlarda va ularning xatti-harakatlarida obyektivlashib, teatr (san'atkor, subyekt) bilan auditoriya (retsipient, obyekt) o'rtasida ijodiy hamkorlikni yuzaga keltiradi. Bu hamkorlikda san'atkorning tarixiy voqelik haqidagi ongi, bilimlari, qarashlari yetakchi o'rinda turadi.

7. Xalq obrazini sahnaga sig'dirish qiyin. Ammo bu obrazni tarixiy shaxslar, qahramonlar orqali ifodalash mumkin. Xalq obrazini yaratish, uni milliy qahramon sifatida tasvirlash mudom munofiy fikrlar va yondashuvlarni keltirib chiqargan. Bu borada teatrshunoslar va tarixchilar biror umumiy fikrga kelisha olmasa ham teatrlarda xalqni milliy qahramon sifatida aks ettirishga intilish ham so'nmagan, buning hozirchalik usuli xalq vakili, qahramoni obrazini yaratishdir. Retsipient ham shunday badiiy-estetik obrazlar orqali xalqni milliy qahramon sifatida idrok etadi. Etnoportret xalq obrazi, ekzistensial borlig'ining real qahramonlardagi ifodasidir.

8. Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini qurish g'oyalari o'zbek teatrlarining kelgusidagi faoliyatini belgilab berayotgan ijtimoiy ekzistensiyaga, voqelikka aylanib bormoqda. Milliy g'oya bilan bog'liq asarlar mustaqillik yillarida teatr sahnalaridan salmoqli o'rin egalladi. Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans g'oyalari aslida ana shu mavzular, obrazlar, siymolarga tayanadi, ularning milliy taraqqiyotga oid an'analarini mantiqan davom ettiradi. Shu tariqa milliylik va umuminsoniylik masalalari Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans bilan bog'liq badiiy-estetik izlanishlarda leytmotiv bo'lib maydonga chiqadi. Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans teatrlardan o'z repertuarlarini mutlaq yangilashni, sahnadan joy olgan qahramonlarni mutlaq o'zgartirishni talab etmaydi, ularga nigilizm emas, balki evolyutsion yondashuv xosdir. Retsipient aynan shu evolyutsion yondashuv tufayli o'ziga qadrdon bo'lgan teatrga qadam qo'yadi, u targ'ib etayotgan g'oyalarni o'zlashtiradi va u bilan ijodiy hamkorlik qiladi.

9. Teatr san'atining yashovchanligi, milliy va ijtimoiy-ongni shakllantirishdagi o'rni retsipientlarining munosabatlarida namoyon bo'ladi. Retsipient, auditoriya uchga guruhlantiradi: 1) oddiy, tasodifiy retsipient (auditoriya); 2) faol, doimiy retsipient (auditoriya); 3) keng, potensial retsipient (auditoriya). Ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi bu faol, doimiy auditoriya teatr san'atini ommaga tanituvchi va uni professional imkoniyatini oshiruvchi retsipientlar hisoblanadi. Bu

retsipientlar faolligiga tayanish, ular bilan ijodiy hamkorlik o'rnatish teatrning imijini shakllantirishga yordam beradi. Oddiy va potensial auditoriyani faol retsipientga aylantirish teatr badiiy-estetik faoliyatining natijasi hisoblanadi.

10. Teatrning retsipientda milliy va ijtimoiy ongni shakllantirishida o'ziga xos, aktyorlar san'ati vositasida amalga oshiriladigan usullari mavjud. Ular retsipientning tarixiy ongida, yashashga va kishilarga bo'lgan munosabatlarida, mustahkam irodali va e'tiqodli bo'lishida, badiiy-estetik ijodida, jamiyat bilan ahil yashashida, fuqarolik burchlarini anglashi va bajarishida, kasb-kor egallab, milliy taraqqiyotga xizmat qilishida namoyon bo'ladi. Mazkur yo'nalishlarning har biri teatr ijodkorlari uchun muhim; ular namoyish etadigan sahna tomoshalari retsipientda ma'lum bir ijtimoiy ma'naviy fazilatlarni shakllantirishga qaratilganki, goho buni san'atkorlarning o'zlari rollarga berilib, anglamasliklari mumkin. Bunday paytda ular shaxs-retsipientlarni emas, balki tasvirlayotgan obrazni, uning taqdirini, badiiy-estetik tasvirni samarali qilishni o'ylaydi. Pirovard natijada esa har qanday sahna asari va obrazi retsipient ongi va ma'naviyatini yuksaltirish, unda ma'lum bir badiiy-estetik g'oya va didni shakllantirishga xizmat qiladi.

11. Teatr san'ati imkoniyatlarini mutlaqlashtirmaslik, idellashtirmaslik kerak, u ijtimoiy-ekzistensial borliqning bir instituti xolos. Milliy ongning shakllanishi ushbu borliqdagi boshqa institutlar ta'sirida ham ro'y beradi.

12. Zamonaviy retsipient badiiy-estetik bilimga ega, bu bilimi bilan teatr san'atini tahlil qila oladi. Shu nuqtai nazardan professional teatr professional retsipientga muhtojdir. Biroq teatrning boshqa ijtimoiy-ma'naviy funksiyalari ham bor, ularga retsipientlarning dam olish va hordiq chiqarish, ijodiy-ma'rifiy yo'nalishdagi informatsiyalar to'plash, diliga yaqin kishilar bilan muloqot uyushtirish kabilar kiradi. Shuning uchun teatr faqat faol, doimiy retsipientni shakllantiradi, qolgan ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar bilan qiziqmaydi, deyish tor fikrdir.

Tadqiqotimiz natijalaridan kelib chiqib amaliyotga quyidagilarni tavsiya etishimiz mumkin:

1. Milliy va ijtimoiy ongni shakllantirish murakkab, ko'pqirrali voqelik, ekzistensial muammo. Shuning uchun u alohida mavzu sifatida kompleks tadqiq etilishi lozim.

2. Retsipient aritmetik, sotsiometrik va antropologik mezonlar bilan o'lchanadigan, izohlanadigan subyekt, shuning uchun uning portretini, modelini yaratish lozim. Bu esa san'atkorlarga qanday auditoriyaga qanday asarlar taklif etish imkonini beradi.

3. Teatr sahnasida qo'yiladigan asarlar o'qish jarayonida faol, doimiy retsipientlar ishtirokida muhokama qilinsa, rejissyorning jamoatchilik oldidagi muhokamasidan keyin sahnalashtirilsa maqsadga muvofiqdir.

4. Teatrlar qoshida retsipientlar klubini tashkil etish va uning yig'ilishlaridagi asarlar, rollar muhokamalarini OAVlarda berib borish lozim.

5. Tomoshalardan keyin retsipientlar o'rtasida ekspress savol-javoblar o'tkazib turish, ularni birgalikda muhokama qilish kerak. Bu teatr bilan auditoriya o'rtasida ijodiy hamkorlik, dialog bo'lishini ta'minlaydi.

6. O‘zbekiston Teatr Arboblari uyushmasi faoliyati borasida tomoshabinlar ma‘lum bir informatsiyalarga ega emas, shuning uchun ushbu ijodiy tashkilot faoliyatini oshkorlik tamoyiliga qurish zarur. Uning yillik hisobotlari teatr jamoalari va faol retsipientlarga tarqatilishi, ular yig‘ilishlarga taklif qilinishi zarur.

7. Teatrlarda oyida bir, maktab o‘quvchilari va talabalar uchun esa ikki ochiq eshiklar kunlari o‘tkazilsa, retsipientlar auditoriyasi kengaygan va jonlangan bo‘lardi.

8. Faol, doimiy retsipientlarning tomoshalarda, spektakl muhokamalarida va repititsiyalarda qatnashishi tashkil etilishi va bu bepul qilingani ma‘qul.

9. Retseptientlarda tomosha madaniyatini shakllantirish dolzarb masaladir. Tomosha madaniyati yoki retseptient etikasi bo‘yicha roliklar namoyish etish, maxsus ma‘ruzalar, suhbatlar uyushtirib turish lozim.

10. O‘zbekiston Teatr Arboblari ijodiy uyushmasi tomonidan «Faol retseptient» faxriy unvoni va ko‘krak nishoni, eng faol retseptientlarni taqdirlab borish an‘anasi joriy etilishi mumkin.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc 03/30.12.2019.F.02.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ ШАРАФА
РАШИДОВА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА

АХМЕТЖАНОВА МУКАДДАС ВАХАБОВНА

**ЭКЗИСТЕНЦИОНАЛЬНАЯ СУТЬ ТЕАТРАЛЬНОГО ИСКУССТВА И
ВЛИЯНИЕ ЕГО НА ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО
СОЗНАНИЯ**

09.00.02 – Философия форм сознания, культуры и практики (Эстетика)

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФСКИХ НАУК (DSc)**

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за номером B2017.3/DSc/Fal26.

Диссертация выполнена в Национальном Университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский) размещён на веб-странице совета (www.samdu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный консультант: **Агзамходжаева Саида Сабитхановна**
доктор философских наук, профессор

Официальные оппоненты: **Самадов Ақтамкул Рафикович**
доктор философских наук (DSc), доцент

Абилов Урал Мурадович
доктор философских наук, профессор

Мухтаров Илдар Аскадович
доктор искусствоведческих наук, доцент

Ведущая организация: **Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами**

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.F.02.02 по присуждению ученой степени при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова «_____» _____ 2023 г. в _____ часов (по адресу: 140104, город Самарканд, университетская аллея, 15. Тел.: (99866) 239-13-87, 239-11-40; факс: (99866) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz Самаркандский государственный университет, Главное здание, 1-этаж, 105-аудитория).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета (зарегистрированной под №____). (Адрес: 140104, город Самарканд, Университетский бульвар, 15. Тел.: (99866) 239-13-87, 239-11-40); факс: (99866) 239-11-40.

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2023 г.
(Протокол реестра № ____ от «_____» _____ 2023 г.)

Ш.Ш.Негматова
Председатель Научного Совета
по присуждению учёных степеней,
доктор философских наук (DSc), профессор

Х.А.Джуракулов
Научный секретарь Научного Совета
по присуждению учёных степеней
доктор философских наук (DSc), доцент

А.Р.Самадов
Председатель Научного Семинара при Научном
Совете по присуждению учёных степеней,
доктор философских наук (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации..
Художественно-эстетическое творчество, литература, музыка, культурно-массовые мероприятия, релаксационные массовые мероприятия, развлекательный досуг и отдых, художественные галереи и студии, кинематография и театральное искусство играют важную роль в мировой цивилизации. Ни один народ, нация и национальность никогда не жили без их влияния, и становление цивилизаций всегда зависело и остаётся зависимым от влияния, формирования, интенсивного или экстенсивного развития этих ценностей. Глобальные изменения, происходящие во всём мире предъявляет особые требования человеческому фактору, формированию в нём национального и общественного сознания, творческих креативных качеств. Сохранение человечества, экзистенциального вселения, гуманизация жизни социума требует от гражданина сознательно, креативно относиться окружающему миру, общественным и государственным делам, объективно и рационально оценить противоречий глобализации, это в свою очередь ставить общесоциальную, общечеловеческую задачу обеспечения развития цивилизации. Вот почему ведущие мировые научные центры, университеты и художественно-экспериментальные студии изучают проблемы художественной эстетики, деятельности, особенно театра. Тем не менее, понимание экзистенциально-философского характера современных и экспериментальных экспериментов в театральном искусстве стало сегодня научной необходимостью.

В мировой науке ведутся прикладные и фундаментальные исследования, связанные с изучением экзистенциально-философской значимости театрального искусства. В частности, важное значение имеют научные исследования, касающиеся формирования национального сознания и духовности у молодёжи, обеспечения гармонии с зрелищной культурой, глобализацией социально- культурных проблем, обогащения духовного мира людей в аспекте инновационного подхода, происходящего в театральном искусстве, теоретические, методологические, концептуальные вопросы, связанные с формированием сознания реципиента (зрителя) и зрелищной культуры, опыты и исследования, оказывающие влияние на их развитие. Вместе с тем, в современных условиях коренных преобразований, превратилось в научную необходимость понимание важности уровня граждан, реципиентов, новых методов и подходов, происходящих в театральном искусстве, их правильная оценка, исследование философско-эстетических методов формирования навыков, осознание значения современных экспериментальных опытов в экзистенциально-философском понимании театрального искусства.

В последние годы в нашей республике осуществляются ряд мероприятий по укреплению материально-технической базы государственных театров, подготовки кадров для отраслей искусства,

поддержки молодых творческих изысканий сотрудников театров, направлению их сознания образам наших современников. «Театр один из самых популярных и влиятельных видов искусства в мире, испокон веков призывает людей к человечности и добру, воспитывая в их сердцах благородные качества и прекрасные чувства, укрепляя мир, дружбу и солидарность, высокую нравственность и справедливость в обществе»¹⁸. Одним из важных социально-духовных задач является широкое и эффективное использование возможностей театрального искусства в построении Нового Узбекистана и фундамента Третьего Ренессанса.

Данное диссертационное исследование в определённой мере служит реализации задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 - 2026 годы» от 29 января 2022 года, № УП-6000 «О мерах по дальнейшему укреплению места и влияния в жизни общества отраслей культуры и искусства» от 26 мая 2020 года; Постановлениях Президента Республики Узбекистан № УП-4038 «Об утверждении концепции дальнейшего развития национальной культуры Республики Узбекистан» от 28 ноября 2018 года, № УП-5039 «Об организации фонда целевой поддержки культуры и творчества» от 26 марта 2021 года; Законе Республики Узбекистан № ЗРУ-668 «О культуре и организациях культуры от 20 января 2021 года; постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан №-329 «О мерах по дальнейшему усовершенствованию деятельности учреждений государственных театров и концертов» от 18 апреля 2019 года, №-325 «О повышении эффективности маркетинговой деятельности музеев и театров в Республике Узбекистан» от 23 мая 2020 года, а также в других нормативно-правовых актах, связанных с темой настоящей диссертации.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Настоящее исследование проводилось в рамках программы научно-технического развития республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации¹⁹.

Ведущие учёные и философы мировых научных центров и высших учебных заведений занимаются изучением проблем и экзистенциально-философской сути театрального искусства. Среди них

¹⁸ Из поздравления Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиёева театральным деятелям нашей страны по случаю Международного дня театра. 21 марта 2021 г.

¹⁹ Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации подготовлен на основе <https://www.theaterderwelt.de/en/>; <https://www.youtube.com/>; <https://www.tass.ru/>; <https://www.rbc.ru/>; <https://www.kommersant.ru/>; <https://www.iz.ru/>; <https://www.kubnews.ru/>; www.dissercat.com/; www.iftr.org/; <https://kaho-berlin.de/ru/>; <https://www.ed.ac.uk/>; <https://ru.wikipedia.org/>; <https://www.finland.fi/ru/>; <https://www.scielo.br/>; <https://www.gitis.net/>; <https://dic.academic.ru/>; <https://www.centraleurasia.org/>; <https://ifeac.hypotheses.org/>; <http://antique-lit.niv.ru/>; <https://rsaa.org.uk/>; <https://www.asiac.net/> и др. источников.

Международная Федерация театральных исследований (США), Kultur und Theater (Германия), Эдинбургский университет (Шотландия), Sirculo De Bellas Artes Minerva (Испания), Dans Sociologie de I Art (Франция), Национальный университет имени Мирзо Улугбека, Государственный институт искусств и культуры Узбекистана и Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова активно занимаются актуальными проблемами художественно-эстетического творчества, театрального искусства и современных сценических героев, подготовкой специальных кадров в соответствии с требованиями аудитории и времени, формированием активных реципиентов.

В научных исследованиях, посвящённых изучению вопросов философско-эстетического значения театрального искусства, его роли в развитии мышления и сознания человека, получены, в частности, следующие научные результаты: на основе анализа художественно-эстетического творчества, потенциального зрителя, подготовки специальных кадров, соответствующих требованиям времени, формировании активных реципиентов и изучения эстетико-артологических проблем, разработаны новые модели современных театральных представлений (Internation Federation for Theatre Resefrch, США); в рамках исследования перспектив театрального искусства рассмотрены вопросы взаимоотношений театра и образования, функциональные особенности театра как посреднического искусства, разнообразные виды и способы, эффективные возможности в воспитании молодёжи (Kultur und Theater, Германия); осуществлены исследования по взаимоотношениям между театроведением и менеджментом искусства, музыкальным театром и психологией, драмой и литературой, понятиями театр – политика – общество (Edinburg University, Шотландия); изучены вопросы значения театра как искусства красоты и грации, современного искусства и визуальной грамотности (Sirculo De Bellas Artes, Испания); обосновано философское значение социологии искусства, эстетическое соответствие театра и искусства с общественной деятельностью (Dans Sociologie de I Art, Франция); генезис узбекского театра, его органическая связь с массовыми представлениями и народными праздниками, взаимоотношение искусства и эстетического идеала, рассмотрены вопросы драматургии, закономерностей, актуальных проблем и определение путей их развития (Национальный университет Узбекистана, Самаркандский государственный университет).

В целях изучения художественно-эстетических особенностей театрального искусства, ведутся исследования в следующих приоритетных направлениях: самофинансирование театров, осуществление деятельности на коммерческой основе; создание условий для предоставления свободы театрам в политическом, экономическом, художественном и бытовом отношении; художественно-эстетический анализ деятельности негосударственных театров; фундаментальные исследования в области

танцевального и хорового искусства; анализ политического театра, театра абсурда, семейного театра, виртуального театра; вопросы международных театральных исследований в контексте дизайна и технологий театра, театра и реализма, национального своеобразия театра, театра и общественного развития; место театра в исторической и общественной жизни; философско-эстетические особенности театрального искусства, конструктивное воздействие театра на мышление человека и развитие сознания.

Степень изученности проблемы. Философско-эстетическое и научно-ретроспективное изучение театрального искусства началось ещё с античной эпохи. В этом смысле учёных, проводивших научные исследования, связанные с данной исследовательской работой, можно разделить на три группы:

